



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi

Qutlimurotova Fotima Qahramon qizining
«Umumta’lim maktablarida XX asr o‘zbek shoiralari ijodini
o‘rgatish (Zulfiya va Saida Zunnunova ijodi misolida)»
mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

NUKUS – 2017



Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek adabiyoti kafedrası yig‘ilishining 2017-yil «___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n. dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.d.prof.K.Quramboev
Ilmiy rahbar:	f.f.n.dots. F.Salaev S.Bekchanova
Bitiruvchi:	F.Qutlimurotova

Qutlimurotova Fotima Qahramon qizining «Umumta`lim maktablarida XX asr o‘zbek shoiralari ijodini o‘rgatish (Zulfiya va Saida Zunnunova ijodi misolida)» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «___» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2017-yil

DAK kotibasi: N.Allamberganova.

MUNDARIJA

KIRISH Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi4

I BOB. MAKTABLARDA ZULFIYA HAYOTI VA IJODINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘RGATISH

1.1. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rgatish.....8

1.2. Zulfiya she’rlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish.....21

II BOB. MAKTABLARDA SAIDA ZUNNUNOVA HAYOTI VA IJODINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘RGATISH

2.1. Saida Zunnunova hayoti va ijodini zamonaviy usullarda
o‘rgatish.....33

2.2. Saida Zunnunova she’rlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish.....44

III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar. 55

3.2. Ochiq dars ishlanmasi 57

XULOSA.....65

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI68

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyot: soʻz sanʼati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi boʻlib keladi. Bunda xalqimiz uchun xizmat qilgan shoir va yozuvchilarning oʻrni beqiyosdir. Zamonamizning serqirra ijodkorlaridan, nasrda va nazmda tanho adibalarimiz Zulfiya va Saida Zunnunovalar ana shunday zabardast qalam sohiblaridan hisoblanadi..Shu oʻrinda Yurtboshimizning ayollar haqida aytgan quyidagi soʻzlarini tilga olib oʻtishni lozim topdik:

“Oilani ham, jamiyatimizning ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida moʻtabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir.¹

Onani eʼzozlash-bizning millatimiz, xalqimiz uchun qadriyat darajasiga koʻtarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulugʻlasak, hayotimizning chirogʻi, umrimizning guli deb eʼzozlasak, demakki, oilamizni, Vatanimizni eʼzozlagan boʻlamiz”.² Prezidentimizning ayollarga bunchalar hurmat-ehtirom koʻrsatishlari bejiz emas. Chunki xalqimizning buyuk tarixida oʻzining jasorat va matonati, aql-zakovati, nafosat va nazokati bilan oʻchmas nom qoldirgan Toʻmaris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Zebinniso, Nodira, Uvaysiy, Anbar otin va boshqa yuzlab ayollarimizning nomlarini hamisha ehtirom bilan tilga olamiz. XX asr oʻzbek adabiyoti rivojida Zulfiya va Saida Zunnunovalarning adabiy avlod vakillari qatorida muayyan xizmati bor. Shoiralar ayniqsa murakkab va tahlikali zamonda taʼqibu tazyiqlar ostida yashab, ijod qildi. Ularning ijodiy merosi ayrim ziddiyatlardan xoli boʻlmagan holda oʻziga xosligini, tabiiy nafosatini saqlab qola olganligi bilan qadrlidir. Zabardast qalam sohibalari buyuk momolariga munosib voris boʻla olgan, oilani ham, ijodni jamoat ishlarini va davlat ishini ham bir xilda olib borishga erishgan risoladagi ayollardan edi.

¹ I.Karimov Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. T., 2008 y., 136-bet.

² Prezident I.Karimovning 1998 yil 5-dekabrda Konstitutsiyaning olti yilligiga bagʻishlangan tantanali majlisda soʻzlagan nutqidan. Ayolga ehtirom toʻplam. T., “Oʻzbekiston 1999, 11-bet.

O'quvchilarga zamonaviy bilim olish yo'llarini o'rgatish, aqlan etuk, jismonan baquvvat, ma'naviy dunyoqarashi keng, har qanday vaziyatda o'zining sog'lom fikri bilan munosabat bildira oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda o'ziga xos o'rni bor. Shu ma'noda Zulfiya va Saida Zunnunovalarning ijodini adabiy ta'limda o'rgatish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha qisman S.Adilova, N.Umarova, H.Ernazarov, F.Egamberdieva va boshqa bir qator metodist olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Biroq Zulfiya va Saida Zunnunovalarning ijodini adabiy ta'limda o'rgatish bugungi kungacha asarlarni to'liq tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilanmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz esa yuqorida ta'kidlangan jihatlar bilan tahlil qilishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi NDPI O'zbek adabiyoti kafedrasining "2016-2017 yillarga mo'ljallangan BMI mavzulari" rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Chindan ham ayollarimizning oilada tutgan o'rni beqiyos. Oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.Ulug' donishmandlar Vatanga eng munosib ta'rif izlaganda, uni ona siymosiga qiyos etganlarida katta ma'no bor. Dunyoda "muqaddas" degan so'zga eng munosib zot ham-Onadir.

XX asr o'zbek adabiyotida Zulfiya va Saida Zunnunovalarning o'z o'rni bor. Istiqloq yillarida tariximizga, ma'naviy merosimizga munosabat tubdan o'zgardi. Mustabid tuzum davrida toptalgan milliy-adabiy qadriyatlarimizni tiklash borasida qator ishlar amalga oshirildi. Shoiralarimiz Sho'rolar zamonida og'ir kunlarni boshdan kechirdi, ammo insoniyatini yo'qotmadi, e'tiqodida sobit turdi, qiyinchiliklarga qarshi mardona kurashib, ijodkorlik, yaratuvchilik pozitsiyasidan chekinmadi. Shoirlarning aksar she'rlari shaxsiy kechinmalari, qalb tug'yonlarining nidosi, o'z umrining parchalari, ammo ularning shaxsiyatining tor qobig'ida qolib ketmadi. Barcha zamonlarda ham birday sanalgan insoniy

tuygʻularni tarannum etib, kitobxon maʼnaviy-estetik dunyosini boyitishga xizmat qilmoqda. Biz shundan kelib chiqqan holda, bitiruv malakaviy ishimizda oʻzbek xalqining oʻziga xos Zulfiya va Saida Zunnunovalarning hayoti va ijodini zamonaviy usullarda oʻrgatishning oʻziga xos usullarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tadqiqotning vazifalari. Biz bitiruv malakaviy ishimizning oldiga qoʻygan maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarishni koʻzda tutdik:

- Maktablarda Zulfiya hayoti va ijodini zamonaviy usullarda oʻrgatishning oʻziga xos usullari;
- Maktablarda Zulfiya sheʼrlarini zamonaviy usullarda oʻrgatishning oʻziga xosligi;
- Saida Zunnunova hayoti va ijodini zamonaviy usullarda oʻrgatishning oʻziga xosligi;
- Saida Zunnunova sheʼrlarini zamonaviy usullarda oʻrgatish;

Tadqiqotning obʼekti. 6-sinf. 8-sinf Adabiyot darsligi. Zulfiya va Saida Zunnunovaning sheʼriy toʻplamlari.

Tadqiqotning predmeti. Umumtaʼlim maktablarida XX asr oʻzbek shoiralaridan Zulfiya va Saida Zunnunova ijodini zamonaviy usullarda oʻrgatish haqida fikr bildirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda Oʻzbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimovanning maʼnaviyat, maʼrifat va umumbashariy qadriyatlar toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalari, milliy madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yoʻllari haqidagi qarashlari, hamda badiiy adabiyotdagi milliy qadriyatlarga oid qilingan tadqiqotlar asos qilib olindi. Bitiruv malakaviy ishimizda M.Qoʻshjonov, N.Karimov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, A.Rasulov, D.Quronov, T.Boboyev, B.Karimov, H.Umurov kabi adabiyotshunoslarning fikr mulohazalariga tayandik va ularning adabiyotshunoslikka doir qarashlari ishimizga ilmiy- nazariy asos boʻlib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida analitik va qiyosiy – tipologik tadqiq usulidan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o'zbek adabiyotshunosligida mavjud qarashlar asosida badiiy adabiyotdagi milliy qadriyatlar o'rganildi. Bunda:

- Maktablarda Zulfiya hayoti va ijodini zamonaviy usullarda o'rgatishning o'ziga xos usullari tahlil qilindi;

- Maktablarda Zulfiya she'rlarini zamonaviy usullarda o'rgatishning o'ziga xosligi tahlilga olindi;

- Saida Zunnunova hayoti va ijodini zamonaviy usullarda o'rgatishning o'ziga xosligi masalasi tadqiq qilindi;

- Saida Zunnunova she'rlarini zamonaviy usullarda o'rgatishning o'ziga xos jihatlari misollar asosida izohlandi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek adabiyotini o'qitish o'quv qo'llanmalar, turli metodik tavsiyanomalar yaratishda, mazkur tadqiqotdan o'zbek adabiyotini o'qitishda, oliy o'quv yurtlarining filologiya fakul'tetlari talabalari amaliyot jarayonida, zamonaviy texnologiyalar bo'yicha maxsus kurslar o'qishda, nazariy seminarlar mashg'ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu ishimiz umumta'lim va o'rta maxsus o'quv dargohlarida, kollej hamda Oliy o'quv yurtlarida dasturulamal bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Ajiniyoz nomidagi NDPI O'zbek adabiyoti kafedrasining qo'shma yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bo'yicha Nukus shahar 37-maktab pedagogik kengashida ma'ruza qilindi va ochiq dars o'tkazildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati kabi qismlaridan tashkil topgan.

Har ikki bobdan olingan umumiy xulosalar ishimizning xulosa qismida o'z ifodasini topadi. Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati to'liq keltiriladi.

I BOB. MAKTABLARDA ZULFIYA HAYOTI VA IJODINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘RGATISH

1.1. Zulfiya hayoti va ijodini o‘rgatish

Muhtaram birinchi prezidentimiz ta’kidlaganlaridek insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari deb ta’riflanishi bejiz emas.

Xalqimiz orasida mana shu g‘oyat mashaqqatli sohaga butun hayotini va noyob iste’dodini bag‘ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan o‘lmas asarlar yaratgan buyuk so‘z san’atkorlari (ularning barcha-barchasining nomlari zikr etish, albatta, ko‘p vaqtni talab qilgan bo‘lur edi) yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

O‘zbek adabiyotining taniqli namoyandasi, xalqimizning suyuqli adibasi Zulfiyaxonim o‘z nomini asrlarga muhrlab ketgan ulug‘ ijodkordir. Uning ijodi, ayniqsa, hayoti har bir o‘zbek ayoli uchun ibrat namunasi.

Zulfiyaxonim Isroilova xushxulqli, olijanob, zukko inson, iste’dod sohibasi, shuning-dek, sadoqat timsoli hamdir. Chunki u turmush o‘rtog‘i, mashhur o‘zbek shoiri Hamid Olimjon bilan juda oz umr kechirgan bo‘lsa-da, unga umrbod sodiq bo‘lib qoldi. Turmush o‘rtog‘ini ulug‘laydi, undan ilhom oladi. Hamid Olimjondek shoirning “ilhom farishtasi”, Omon va Xulkarlarning mehr quyoshi ya’ni volidai muhtaramasi, Xalq ardog‘ida el e’tiborida bo‘lgan shoira, davlat arbobi, qo‘yingki mo‘tabar va muhtaram ayol vafo va sadoqat timsoli Zulfiyaxonimdir. U kishining mehridan bahramand bo‘lmagan zamondosh shoiru adib kam. Bugun esa ko‘pchilik qizlarimiz «Zulfiyaxonimdek shoira bo‘laman», deya katta ishtiyoq va ixlos bilan qo‘liga qalam olayotgani shoiraning o‘z izdoshlari qalbiga mangu cho‘g‘ solib ketganidan dalolatdir. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan o‘zining vafo va sadoqati, onalik mehri va ayollik jasorati, salohiyati bilan o‘zbek ayollari uchun ibratga aylangan shoira sharafiga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Bugun ushbu mukofot har bir o‘zbek qizining yuragiga yuksak orzular tugib, intilishga chorlamoqda.

«Inson o'z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qaerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lim-tarbiyasi uning etuk shaxs va malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz.»¹ Ushbu fikrlardan to'g'ri xulosa chiqaradigan o'qituvchilarimiz o'z darslarini samarali tashkil qilishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'z faoliyati davomida hamisha eslarida turishi kerak deb o'ylayman.

Zulfiya ijodidan namunalar umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi "Adabiyot"² darsligida berilgan bo'lib, dasturda ularni o'rganish uchun ikki soat belgilangan. O'qituvchi istasa, o'ziga berilgan imkoniyatdan foydalanishi, biror mavzudan bir soatni ajratib olib Zulfiya ijodini o'rganishga qo'shimcha qilishi mumkin. Dasturda shoiraning «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..»³, «Bog'lar qiyg'os gulda»⁴, «Nevara»⁵, «Bahor keldi, seni so'roqlab »⁶ she'rlarini o'rganish rejalashtirilgan. Birinchi darsda shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi. Keyin esa Zulfiya she'rlarida insondagi yashirin tuyg'ularning samimiy tasvirlanishini o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar asosida o'rgatishga harakat qiladi. His-tuyg'ularning samimiyliigi va haqqoniyliigi, vafo va sadoqatning tarannumi Zulfiya she'rlarining etakchi fazilat ekanligini o'quvchilarga o'rgatadi. Shoir she'rlarida inson ko'nglidan kechgan, ifodalash mushkul bo'lgan sezgilarning o'ta tabiiy aks ettirilishi masalasini o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya tizimi o'rgatish usullarining boy tajribasiga ega. Ta'limda usullar to'g'ri tanlanar ekan, ko'zlangan natijaga qisqa yo'l bilan erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya sohasining to'xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta'lim muassasalari oldida turgan

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, „Ma'naviyat“, 2008. 81 bet

² Adabiyot. 6-sinf. Darslik-majmua. T., «G'.G'ulom». 2009.

³ Adabiyot. 6-sinf. Darslik-majmua. T., «G'.G'ulom». 2009

⁴ Adabiyot. 6-sinf. Darslik-majmua. T., «G'.G'ulom». 2009

⁵ Adabiyot. 6-sinf. Darslik-majmua. T., «G'.G'ulom». 2009

⁶ Adabiyot. 6-sinf. Darslik-majmua. T., «G'.G'ulom». 2009

vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'rgatish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda.

O'rgatish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining xarakterini, o'qish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, o'rgatish usullari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Demak, o'rgatish usullari pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro birgalikdagi faoliyatini ko'zda tutadi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining turi, usuli o'rgatiladigan ma'lumotning xarakteriga qarab belgilanadi. Aynan mana shu holat ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi. Haqiqiy ma'rifatli, bilimdon, ma'naviyati boy insonlar cho'llarni guliston qilish uchun to'lib-toshib oqayotgan daryoga o'xshaydi, u o'zidagi ilm-ma'rifatdan hammani baxramand qiladi.

Qadim-qadimdan shaxsni tarbiyalash ishiga jamiyatning etuk kishilari jalb etilgan. Pedagog o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, nazariy bilimlarni amaliy maqsadlarga tatbiq qila olishi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni o'quv jarayoniga tatbiq qilib borishi zarur, - deydi ustoz Boqijon To'xliev.

Odatda, daraxtning qancha yoshga kirganligi yillik xalqasiga qarab aniqlanadi, insonning umri esa uning xayotda qanday yaxshi ishlar qilganligi bilan o'lchanadi.

Har qanday adib asarini o'rganishdan oldin o'quvchi uning shaxsi haqida imkon qadar mukammal ma'lumotga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunda uning ijodini to'laroq anglash imkoniyati ortadi. Shuning uchun ham, "Adabiyot" darsliklarida avval adibning tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar taqdim etiladi. 6-sinf darsligida Zulfiya haqida berilgan bir betlik hasbi hol ham uning hayotiy faoliyatini ochib berishga qaratilgan. Lekin bu bilan o'quvchi uning shaxsi haqida mukammal ma'lumotga ega bo'lolmaydi.

Darsda o'qituvchi tomonidan shoir shaxsi bilan bog'liq bir qator qo'shimcha ma'lumotlarning taqdim etilishi o'quvchiga uning asarlarini to'laroq anglash, chuqurroq tahlil qilish imkonini ham beradi. Bundan tashqari milliy tarbiyashunoslikda: "Millatning ulug' vakillari o'z shaxsi bilan o'sib kelayotgan avlodning ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi" degan fikr mavjud. O'sib kelayotgan avlod ulug'lar shaxsi ko'magida o'z-o'zini tarbayalashi uchun ularning shaxsiga xos sifatlarni ko'rishi, ulardan ta'sirlanishi, hayratlanishi va bahra olishi kerak. Ulug'lardagi o'quvchini hayratga solgan, uni ta'sirlantirgan, havasini uyg'otgan sifatlarga unga asta-sekinlik bilan "yuqa" boshlaydi. Hayrat va havas ta'sirida shoir shaxsidagi o'quvchi tuyg'ularini junbushga keltirgan fazilatlar hech qanday tashqi zo'riqishlarsiz, ortiqcha pand-nasihatlarsiz o'quvchi shuuridan, ruhiyatidan joy-ola boshlaydi. Adiblarning bunday fazilatlarini o'quvchilarga ochib berish adabiyot o'qituvchisining vazifasi hisoblanadi. Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayriча ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qaerlardan olinadi?

Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holda etib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

“Zulfiyaning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aqlu zakosi, fazlu kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan”.

I.Karimov

“Zulfiyaxonim she'rlarida tong tasviri buyuk erk, buyuk baxt, buyuk davr, yorug` dunyo timsoliday jaranglab ketganligi va hanuz o`shandoq jaranglab turganligi hech kimga sir emas...”

“Zulfiya qahramonining nigohi mayin va xassos. Uning she`riyatida engil, havoyi biron satr yo`q. Zulfiyagacha o`zbek ayollarida hech kim xalq hayoti ichiga, ijtimoy borliqqa, insoniy, siyosiy, tarixiy hodisalar ichiga bunchalar chuqur kirib bormagan edi”.

I.G`afurov

*Umlarcha davom etsin
Vatan ufqida parvozing,
Zamon aksi sadosidek
jaranglab tursin ovozing.*



Shoir G`afur G'ulom

*Shoira Zulfiyaning adabiyot olamimizdagi
ovozini birinchi eshitganimda, birinchi she'rlarini
o'qiganimda ilhomning tozaligi, hislarining
nafisligi, she'rlarining samimiyligidan suyungan edim...*



Yozuvchi Oybek

*Zamondoshim, uzoq ijod yo'lida hamfikir va
hamkasbimiz Zulfiya haqida o'ylasam shunday
fikir yodimdan kechadi. Zulfiyaning oddiy temirchi
qizidan qahramon shoira darajasigacha bosib
o'tgan yo'li - bu Sharq xotin-qizi, o'zbek ayolining
shonli yo'lidir...*



Yozuvchi va dramaturg Komil Yashin

*Zulfiyaning she'rlarini ona tilim - boshqird tiliga
o'girarkanman, ulardan olgan zavq meni lol qoldirgan.*



Boshqirdistonlik shoir Mustay Karim

*Agar Zulfiya Armanistonda tug'ilganda - Silva,
Leningradda tug'ilganda - Bergols, Bolgariyada
Bagryana, Yugoslaviyada tug'ilganda ham Desanka
Maksimovichdek mashhur shoira bo'la olar edi...*



Dog'istonlik shoir Rasul Hamzatov

*Men shoira poeziyasida dilbarlik, donolik, bu ulkan
madaniyatning qo'lga kiritgan ulkan yutug'i ekanligini
ham ta'kidlamogchiman...*



Qirg'iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatov

*Sizning misralaringizni kuychi bulbullarimiz shunday
kuylaydiki, ularni Moskvada turib ham eshitish mumkin.
Sizning ovozingiz hamisha tetik...*



Davlat arbobi Nikolay Tixonov

*...Zulfiyaning g'ururi, sururi, butun iztirobi, dardlari,
kuyunchi, suyunchi, osuda xayollari, dolg'ali tuyg'ulari
balqib yotgan betakror ijodiyoti xalqimiz mehnati,
hayoti, kelajagining ajralmas bir parchasi. Uning bedorligi,
beoromligi, ilhomi, hijroni, o'chmas muhabbati -
o'z xalqining yuragiga, tomir urishiga hamohang.*



Shoira Oydin Hojiyeva

*Adabiy davralarda Zulfiya opaga juda katta mehr
bilan boqib, u kishini "she'riyatimiz malikasi" deb
atab keladilar...*



O'zbekiston qahramoni, shoir Abdulla Oripov

*Zulfiya singari siymolar xalqning baxti bo'lib yaraladilar.
Bu baxt, avvalo, o'zbekniki, O'zbekistonniki, mamlakatniki,
so'ngra esa dunyoniki...*



O'zbekiston qahramoni, shoir Erkin Vohidov

Bunday fikrlardan adabiyot darslari jarayonida foydalanish o'quvchilarning badiiy adabiyotga, uning ijodkoriga nisbatan qiziqish va muhabbatini yanada kuchaytiradi. Keyin esa slayd asosida o'qituvchi shoir hayoti bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Bu quyidagi tartibda bo'ladi.

1915-yil 1-mart. Toshkentning Degrez mahallasida hunarmand oilasida tug'iladi.

1931–34-yillar. Xotin-qizlar bilim yurtida o'qiydi. Adabiy to'garaklarda qatnashadi va she'rlar mashq qiladi.

1931-yil 17-iyul. Birinchi she'ri «Ishchi» gazetasida bosiladi.

1932-yil. Hamid Olimjon bilan uchrashadi.

1932-yil. «Hayot varaqalari» nomli birinchi she'rlar to'plami chop etiladi. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida o'qiydi.

1933–35-yillar. O'zbekiston Davlat nashriyotida ishlaydi.

1935–38-yillar. O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi til-adabiyot instituti aspiranturasida o'qiydi.

1938-yil. Bolalar nashriyotida muharrir.

1939-yil. «Qizlar qo'shig'i» she'riy kitobi chiqadi.

1941-yil. O'zbekiston Davlat nashriyotida adabiyot bo'limi boshlig'i.

1943-yil. «Hulkar» kitobi, «Uni Farhod der edilar» poemasi nashr etildi.

1944-yil. «Hijron kunlarida» kitobi chiqadi.

1944-yil. Hamid Olimjon vafotiga atab «Kechir, qoldim g'aflatda», «Yulduz», «Ne balolarga etding muhtalo», «Sen qaydasan, yuragim», «Ko'rganmidim ko'zlarimda yosh», «Bahor keldi seni so'roqlab» she'rlarini yozadi.

1950–53-yillar. «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnali bo'limi boshlig'i.

1950-yil. «Men tongni kuylayman» she'riy kitobi chiqadi.

1953-yil. «Dugonalar bilan suhbat» kitobi nashr etiladi. «Oydin» ocherki bosildi.

1954-yil. «Saodat» jurnalining bosh muharriri.

1958-yil. «Yuragimga yaqin kishilar» kitobi chiqadi. «Mushoira» she'ri, «Zaynab va Omon» operasi librettosi yozildi.

1965-yil. O'zbekiston xalq shoiri unvoni beriladi. «Kuylarim sizga» she'rlar to'plami, «O'ylar» adabiy maqolalari kitobi chop etiladi.

1967-yil. Neru xalqaro mukofoti laureati bo'ldi. «Quyoshli qalam» poemasini yozdi.

1970-yil. Nilufar nomli xalqaro mukofot laureati bo'ldi.

1972-yil. «Visol» she'rlar to'plami nashr etildi.

1972-yil. Bolgariya Xalq Respublikasining I-darajali Kirill va Mefodiy ordenini oldi.

1974-yil. 2 jildlik «Asarlar» to'plami chiqdi.

1975-yil. «Yillar, yillar» she'rlar kitobi chop etildi.

1976-yil. «Kamalak» she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti berildi.
«Shalola» she'rlar kitobi chiqdi.

1984-yil. Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Respublika Davlat mukofoti laureati boldi, Hamid Olimjonning «Semurg'» dostoni asosida pyesa-ertakyozi.

1996-yil. 81 yoshida vafot etdi.

Erishgan yutuqlari

- *1965 –yil o`zbekiston xalq shoiri unvoni beriladi.*
- *1967-yil. Neru xalqaro mukofoti laureati bo`ldi.*
- *1970-yil. Nilufar nomli xalqaro mukofot laureati bo`ldi.*
- *1972-yil. Bolgariya Xalq Respublikasining I-darajali Kirill va Mefodiy ordenini oldi.*
- *1975 yil "Kamalak» she'rlar kitobi uchun Davlat mukofoti berildi.*
- *1984-yil. Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Respublika Davlat mukofoti laureati boldi.*
- *1999- yil o`zbekistonda Zulfiya mukofoti ta`sis etildi*

Zulfiyaning hayoti va ijodi yuzasidan quyidagi dars ishlanma asosida ham samarali dars tashkil qilish mumkin.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarda **Zulfiyaning hayoti va ijodi** yuzasidan bilim, malaka, ko'nikmalar hosil qilish;

Tarbiyaviy : o'quvchilarga axloqiy , estetik tarbiya berish;

Rrivojlantiruvchi: o'quvchilarda bahslashish , musobaqalashish , ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish,

Dars uslibi: suhbat, amaliy

Dars usuli: Aqliy hujum, Klaster

Darsning turi: Yangi bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish

Dars jihozi : 1. shoir portreti, testlar, Adabiyot qo'llanma Safo Matjonov va bopshqalar .

“Ehtirom” Toshkent 1995 yil , shoir haqida buklet ,

Darsning shiori: Umlarcha davom etsin Vatan ufqida parvozing

Zamon aksi sadosidek, jaranglab tursin ovozing.

G'.G'ulom

Dars rejasi : 1. Shoir haqida zamondoshlari fikrlari

2. Shoir hayot yo'liga nazar

3. She'riyat bo'stoniga sayr aylab

4. Shoir hayoti va ijodidan test

Darsning borishi : Tashkiliy qism

1. Davomat 2. Sinfda psixologik iqlim yaratish

O'qtuvchi: Aziz o'quvchilar, biz bugun **Zulfiyaning hayoti va ijodi** yuzasidan o'rgangan bilimlarimizni mustahkamlaymiz. Sinfni 2. guruhga bo'linadi. O'yin shartlari eslatilib , rag'bat kartochkalari asosida guruhlar baholab boriladi .

Darsga Zulfiya zamondoshlari taklif qilinadi . Ular Zulfiya haqida o'zlarining fikrlarini bayon etishadi.

Darsda Mirtemir domla qiyofasi jonlantiriladi.:

O'zbek poeziyasida Zulfiya degan nomning chaq nab paydo bo'lishi – tong yulduzining tug'ilishiga teng voqea bo'lgani hanuz esimda, o'sha tongning o'ziday rost va yorqin bir haqiqat bu o'zi .

Bohid Zohidov: She'r shaklidagi nafas malikasi!

Koinotning quyoshi bor, tabiatning bahori bor, ayolning sehrli iffati va go'dakning dunyoga teng tabassumi bor, uzukning hamyuksak ezgulik va go'zallik ramzi bo'lgan ko'zi bor, badiyatimizda esa Siz bor...

Komil Yashin: Shoir- xalq qalbining tarjimoni , uning ezgu ideallari , orzu-intilishlarining ifodachisi, xalq xotirasidir.

Mustay Karim: Zulfiya va she'riyat, Zulfiya va qoshiq – bu so'zlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Aqliy hujum:

1. Zulfiya qachon, qayerda tug'ilgan? Zulfiya Isroilova 1915 yil 1- martda Toshkentda temirchi oilasida tug'ilgan

2. Maktabda nechanchi yillarda tahsil oladi? 1922- 1931- yillarda

3. Ish faoliyati ? 1935- 1938 yillarda Til va adabiyot jurnali aspiranturasida o'qiydi, 1938- 1948 yillarda Bolalar nashriyotida, "Ozbekiston" nashriyotida 1953- 1980 yillarda "Soaodat" jurnalida ishlaganlar.

4. Mukofotlari ? " Nilufar " hamda Jovarharlal Neru nomidagi Davlat mukofoti

5. Pyesa va operalari? "Semurg", "Zaynab va Omon"

Tarjimalari ? Rus, ukrain, ozorboyjon, hind shoirlari she'rlarini o'zbek tiliga o'giran

6. Zulfiya she'rlari qaysi tillarga tarjima qilingan? Ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vetnam tillariga tarjima qilingan.

7. 1- she'riy to'plami- "Hayot varaqalari" 1932 yil.

8. Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlab yozilgan to'plami ? "Bahor keldi seni so'roqlab"

9. Shoiraning qaysi she'ri Hindiston mamalakati bilan bog'liq ? "Hindiston"

10. Shoira farzandlari? Hulkar, Omon,

Qo'shimcha ma'lumotlar: Shoira she'rlari :

"Qizlar qo'shig'i", (1938) "She'rlar" 1939, "Hijron kunlarida" 1944, "Dalada bir kun" 1948, "Tong qo'shig'i" 1953 , "Yuragimga yaqin kishilar" 1958, "Kuylarim sizga" 1965, "O'ylar" , "Shalola" , "Quyoshli qalam" (Oybekka bag'ishlangan) "Mushoira" , "Xotira siniqlari" 1995, "O'g'lim sira bo'lmaydi urush" 1954, "Tun" 1944, "hijron" , "Oydinda", "Mening vatanim"

"Bahor keldi seni so'roqlab" "Ko'rganmiding ko'zlarimga yosh" , "Zootexnik qiz" "Cho'pon", "Sen qaydasan yuragim" , "Nebaloga etding

mubtalo!”, “Sensiz” , “Oydinda” , “Lobar qizlarga” , “Bog’lar qiyg’os gulda” ,
“Men o’tgan umrga” ...

Shoira she’rlarini ifodali o’qish , Bahru bayt musobaqasi

Salom mening aziz dugonalarim ,

Azizim lobarim , chevarim qizlar! “Lobar qizlarga”

Men quyoshli el farzandiman,

Baxtlimanki yoniq nafas yor.

Ishq va hijron olovlaridan

Omon chiqqan qaynoq dilim bor. ‘Rashk “ she’ridan

Shoira hayoti va ijodidan test

1. “Bahor keldi seni so’roqlab “ sahe’rida shoira qaysi obrazdan unumli foydalangan?

A) shabboda B) tuproq C) suv D) tosh

2.”Mushoira “ she’ri qaysi yurt tuprog’ida bo’lib otgan mushoira qalamga olinadi?

A) Hindistin B) Xitoy C) Qozog’iston D) Tojikiston

3. “Xotiram siniqlari “ she’rida qaysi tuhfa qadrlanadi?

A) Hurriyat B) Istiqlol C) A,B D) vatan

4. Urush nomin o’chsin jahonda , Hamon bitmas sen solgan alam ...qaysi she’ridan?

A) “Mushoira” B) “Sensiz” C) O’g’lim sira bo’lmaydi urush” D) “Aziz tuyg’ular “

5. Zulfiya dostonlari

A) “Quyoshli qalam” B) “Mushoira” , “Xotira siniqlari “ C) A,B “Aziz tuyg’ular “ D)

6. “Aziz tuyg’ular “ she’ri necha she’rni birlashtiradi?

A) 5 B)7 C) 10 D)12

7. ‘Nevara she’ri kimga atalgan?

A) Nevarasi Shodlikka B) Nevarasi Ulug’bekka C) Nevarasi Ahrorga D) qiziga

8. Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob , Yurak borligida qilmabman parvo ...
qaysi she'ridan

A) "Sensiz" B) Men o'tgan umrga" C) "Oydinda" D) "Aziz tuyg'ular "

9. "Bog'lar qiyg'os gulda" she'rida "bir kaft bog" qanday ramziy ma'no
anglatadi?

A) Vatanni B) tuproqni C) bog'larni D) sahroni

10. Prezidentimiz Islom Karimov qaysi kitoblarida Zulfiya haqida ma'naviy
jasorat ko'rsatdi deganlar?

A) "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch "

B) "Oллоh qalbimizda , yuragimizda "

C) "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida"

D) "Barkamol avlod orzusi"

O'qituvchi:

Zulfiyaxonim she'rlarida tong timsoli , tong tasviri buyuk baxt, buyuk davr,
buyuk va yorug' dunyo timsoliday jaranglab ketganligi va hanuz o'shandoq
jaranglab turganligi hech kimga sir emas, hammasi faqat mehnatdan, uzluksiz
mehnatdan!

Jahongashta va tinimsiz shoira asarlari talay- talay xalqlar tilida jaranglab
turgani haqiqat! Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatini jahon minbarlaridan
jaranglatganlardan biri va balkim birinchisi qozoq, ham, arman ham, tojik ham ,
ukrain ham, bulg'or ham, zanji ham, arab ham shoiramiz ijodidan bahramand va
uning odamiyligiga , san'atiga , mahoratiga , jasoratiga shaydo. Dongdorlikmi va
dovruq bo'lsa shunday bo'ladi-da Zulfiyaxonim hozir yolg'iz emas. Ayol
qalbining tepigini she'r qiluvchi Saida Zunnunova va Oydin Hojiyeva kabi
shoiralar yetishib chiqdi..Ham izdosh , ham yelkadosh .Bular kamolotida
Zulfiyaxonimning mehnati qancha- qancha. Ularga onaboshi .

Aziz o'quvchilarim , sizlarning orangizdan ham Zulfiyaxonimdek metin
irodali , yurtimiz koriga yaraydigan qizlarimiz yetishib chiqadi degan umiddaman.

Dars yakunida eng faol qatnashgan guruh, eng faol o'quvchilar aniqlanib,
rag'batlantiriladi.

Uy ishi .Shoira she'rlaridan yod olish

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatimizning buguni, ertasi va kelajagi ko'p jihatdan yoshlarimiz tarbiyasiga bog'liq ekanligi muhtaram Birinchi Prezidentimiz tomonidan ham ko'p marta ta'kidlangan. Mustaqillikni mustahkamlash, adolatli va ma'rifatli demokratik jamiyat barpo etish jarayonida yoshlarni do'stlik, hamkorlik, hamdardlik, birodarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ajdodlarimiz hamda avlodlarimizni bir-biriga tutashtirib, avlodlar davomiyligi va vorisligini ifodalab kelayotgan qadriyatlarimizning o'rnini beqiyosdir. Badiiy asarlarda milliy qadriyatlarimizning qator ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ming yillar davomida sayqal topib milliy, ayni paytda, umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan qadriyatlarni yozuvchilar shaxsi va asarlaridagi ibrat namunalari orqali o'quvchilar ongiga singdirib borish adabiy ta'lim oldidagi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

1.2. Zulfiya she'rlarini zamonaviy usullarda o'rgatish

Bolani har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun o'qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va pedagogik mahorat, shaxsiy ijtimoiy sifatlar talab qilinadi. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchiga qanday muomalada bo'lishni, organilishi lozim bo'lgan bilimni tadbiq etishning turli usullarini yaxshi biladi, odob-axloq qoidalarini, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri singdira oladi. Barchamizga ayonki, kerakli bilimni o'z vaqtida o'zlashtirgan, odobli va tarbiyali, shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri anglay olgan, ma'naviy dunyosi sog'lom o'quvchigina komil inson bo'la oladi. Zulfiyaning dasturda «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro...», «Bog'lar qiyg'os gulda», «Nevara», «Bahor keldi, seni so'roqlab» she'rlari o'rin olgan. Shoira hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgandan keyin uning she'rlari tahlil qilinadi. Zulfiyaxonim she'rlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuyg'usiga to'lgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoira she'rlarida hayotga, yashashga bo'lgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. She'rlar badiiy jozibada ekanligi o'quvchilarga har xil usullar yordamida tushuntiriladi.

O'qituvchi – bu eng avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsda nimadir yangilik olishi va shu yangilik orqali nimadir qila olishi uning mahorati, bilimi va saviyasiga bog'liq. O'qituvchi har bir darsda dolzarb masalalarni qo'ya olishi, o'quvchilarni bahs-munozaraga chorlay bilishi, darsni oxirigacha qiziqarli tarzda olib borishi zarur. Ta'lim sifatini ta'minlovchi yana bir omil – bu faol o'quvchidir. O'quvchilarni faollashtirish uchun esa o'qituvchi darslarda faol ta'lim metodlari va elementlaridan foydalanishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Ifodali o'qishning o'zi ta'limning bir texnologiyasi hisoblanadi. Toki, She'r o'quvchilarning tuyg'ulariga bevosita tegib ketadigan bo'lsin. Toki Shoirning hissiyot olami o'quvchilar nazarida ro'y-rost gavdalanadigan bo'lsin. She'r maromiga etkazib o'qilgach, bir oz sukutdan keyin uning tahliliga kirishish lozim. Ochiq aytish kerakki, She'riyatning chinakam namunalari tahlil qilish nihoyatda mushkul. Chunki asl lirikada odamzod oddiy til bilan ifodalay olmaydigan tuyg'ular, ruhiy holatlar aks etadi. Bunday holatni oddiy til bilan

ifodalash She'ning jozibasini yo'qqa chiqarish bilan barobar bo'ladi. Ayni vaqtda, agar o'qituvchi She'ning butun jozibasini o'quvchilar qalbiga etkaza bilgan bo'lsa, uni tahlillashga dastlabki qadam to'g'ri qo'yilgan bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi eng avvalo she'ni ifodali qilib o'quvchilarga o'qib berishi kerak. "Nevara" Ulug'bekka she'ri

Nevaram quyunday otilib kirib,
Qalamim tagidan qog'ozni yular.
Damda varrak yasab ko'kka uchirib,
Izidan qop-qora ko'zlari yurar,
Varrak tortar shekil, murg'akni kuch-la
Oyoq tirab siltar dakani kibor
Ayrilib qog'ozdan, she'rdan va hushdan
Boqaman varrakboz jonga baxtiyor,
Naq bobosi siyoq zehnday tiyrak,
Ko'kish alangada yonar sochu qosh.
Borlig'i ezgu bir o't bo'lsa kerak,
Tomirlarda qonmas, kezadi quyosh.
Daka varrak tiniq zangori fazo
Tubiga intilar, sho'ng'ir naq xayol.
Talpingan ko'ksingda, bolakay ne bor,
Sen iqbolga, senga ne tutar iqbol?
Nevara bo'lmasa, odamzod albat,
O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

She'r o'qib bo'lingandan keyin o'quvchilarga Aqliy hujum usulidan foydalanib savollar bilan murojat qilinadi.

1. Nevarasi nima qiladi?

*Nevaram quyunday otilib kirib,
Qalamim tagidan qog'ozni yular.*

2. Nevarasini nimaga o'xshatadi?

Varrak tortar shekil, murg'akni kuch-la

Oyoq tirab siltar dakani kibor

3. Kimni xislatlarini nevarasida ko`radi?

Boqaman varrakboz jonga baxtiyor,

*Naq **bobosi** siyoq zehnday tiyrak,*

Ko`kish alangada yonar sochu qosh.

Borlig`i ezgu bir o`t bo`lsa kerak,

Shu o`rinda o`quvchilardan nevaraning bobosi kim ekanligi, so`raladi. Xamid Olimjon haqida o`quvchilarga ma`lumot berib, fikrlari to`ldiriladi.

Uning turmush o`rtog`i, Bolalik kunlarida ko`p ertak eshitgan... ENG GULLAGAN YoShLIK ChOG`IDA... Vodiylarni yayov kezib...O`RIK GULLARidan bahramand bo`lgan.... Tarix varaqlab Muqanna otiga mingan va yana 12 yoshida qalam tebratgan, 20 yoshida elga tanilgan, 25 yoshida Amerika, Frantsiya gazetalarida nomi tilga olina boshlangan, 30 yoshida XX asr o`zbek adabiyotining bayroqdori bo`lgan, o`zbek yozuvchilarining irodali rahbari darajasiga ko`tarilgan, ming afsuski 35 yoshga to`lmay bu dunyoni tark etgan... ulug` inson, buyuk shoir, dramaturg, publitsist va yirik jamoat arbobi Hamid Olimjondir.

O`quvchilar yuqoridagi savollarga javob topish uchun she`r matniga tayanib bosh qotirsalar asarning jozibasini, siri yanada chuqurroq ochila boradi. Savollarga sinfdagi o`quvchilarning hammasi javob berishi shart emas. Javobni hammadan birday talab qilish ham metodik jihatidan uncha to`g`ri emas. Garchi sinfda savollarga umuman javob bo`lmasa ham bundan fojia yasamaslik kerak. YOki o`quvchilarga bergan savoliga o`qituvchining o`zi javob berishi ham noto`g`ri. Agar savolga javob bo`lmasa, uni ochiq qoldirish, bu haqda o`ylab ko`rishni tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo`ladi. “Bog`lar qiyg`os gulda” she`ri ham o`qituvchi tamonidan ifodali o`qib beriladi.

Bog`lar qiyg`os gulda — yaxlit bir chaman,

Har daraxt anvoi bir tarovatda.

Bir kaft bog` mehnatu hosilga vatan,

O`zga ko`rk, o`zga rang har bir daraxtda.

Har navda bir gulda, har gulda bir ro`y,
Har daraxt bargi bir dunyo hikoya,
Har birin hosili o`zgasiga ko`rk,
Biri-biri uchun qudrat, himoya.
Vatanim ko`zimda: qay burchi aziz,
Bilmam, qayda tole serzavq, serjilo?
Yalpi to`lishadi bedaxl yurtimiz,
Naq har qarichi dil, jon tomir go`yo,
Bir qardosh tinchisiz — o`zga beorom
Birining nonisiz — o`zga emas to`q...
Bu — qadim dunyoda yangi bir olam,
Bunda orqa tog`siz bir tirik jon yo`q.
Tayanch bo`lmasaydi odamzod albat,
O`zi kashf etardi, kashf etganday baxt.

O`zbek adabiyotining yirik namoyondasi Zulfiyaxonim she`riyatida buyuk erk, buyuk baxt, vafo mavzulari bilan bir qatorda vatanparvarlik, ona tabiatning mohirona chizgilari, ona tuproq qo`shiqlari, onalik faxriyalariga keng o`rin berilgan. U ko`klam jarchisi, tong kuychisi butun hayotini, bilimini she`riyatga bag`ishlagan. Farzand kamolini dildan tilagan onaizor kechinmalarini haqqoniy tasvirlagan shoiraning she`rlarida yosh avlodning sog`lom, etuk va komil inson sifatida voyaga etishiga keng o`rin berilgan. Zulfiyaxonim qalbi pok, mehridaryo ayol, vafodor yor, sevimli beka sifatida o`zbek xotin-qizlarining yorqin timsoli. El sevgan shoiraning jarangdor ovozi, jo`shqin she`rlari hamon o`quvchi qalbini hayajonga to`ldirib yangrab turibdi.

"Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da belgilangan ta`lim sifati va samaradorligini yanada oshirish. o`kituvchilarni ilg`or dars o`tish metod va usullari bilan qurollantirish va ular asosida dars mashg`ulotdarini tashkil etishga yo`naltirish. o`quvchilarga zamonaviy bilim olish yo`llarini o`rgatish, aqlan etuk, jismonan baquvvat, ma`naviy dunyoqarashi keng, xar qanday vaziyatda o`zining sog`lom fikri bilan munosabat bildira

oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishda o'ziga xos o'rni bor.

Adabiyot fanining tarbiyaviy-ma'rifiy vazifalari hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-IX sinflarida adabiyotni shartli ikki bosqichga bo'lib o'rganish ko'zda tutiladi. Bosqichlar orasida mantiqiy izchillik, davomiylik va uzluksizlik bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Adabiyot darslarida savollar orqali munozara darslari o'tkazish mumkin. Bunda suhbat metodidan foydalaniladi. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, tafakkurini kengaytirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara darslarida o'qituvchiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Bu darsning samarali bo'lishida o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi katta rol o'ynaydi. Demak, munozara darslari o'qituvchi+o'quvchi faoliyatida o'z aksini topadi.

Taqdim etilayotgan ko'rsatmalarning asosiy maqsadi mashg'ulotlarda o'quvchining izlanishi, mehnat qilishi, asarni mutolaa qilib, mavzuni tahlil etishi, mulohaza yuritib, fikrlatishi, darslik mualliflarinikidan farqli ravishda asar haqida o'z xulosalarini bildirishga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarning tarbiyalanishi va ruhiyatida insoniy fazilatlarining shakllanishida shaxsan ishtirok etishiga xizmat qilishga yo'naltirilgan.

Bolani har tamonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash uchun o'qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va pedagogik mahorat, shaxsiy ijtimoiy sifatlar talab qilinadi. Ana shu sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina o'quvchiga qanday muomalada bo'lishni, organilishi lozim bo'lgan bilimni tadbiiq etishning turli usullarini yaxshi biladi, odob-axloq qoidalarini, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri singdira oladi. Barchamizga ayonki, kerakli bilimni o'z vaqtida o'zlashtirgan, odobli va tarbiyali, shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni to'g'ri anglay olgan, ma'naviy dunyosi sog'lom o'quvchigina komil inson bo'la oladi.

Keyin esa she'rlari tahlil qilinadi. Birinchi navbatda uning «Bahor keldi eni so'roqlab»⁷ she'ri tahlilga tortiladi. Undan keyin she'r ifodali o'qiladi yoki slayd yordmida ko'rsatiladi.

Adabiy ta'limda ifodali o'qishning ham ahamiyati katta. Mashg'ulotlarda asardanparcha o'qituvchi tomonidan shunday o'qilish kerakki, o'quvchilar-hayratga tushsinlar. Zero, bolani hayratlantirmasdan turib, hech narsa o'rgatib bo'lmaydi.

Zulfiyaxonim Isroilova xushxulqli, olijanob, zukko inson, iste'dod sohibasi, shuning-dek, sadoqat timsoli hamdir. Chunki u turmush o'rtog'i, mashhur o'zbek shoiri Hamid Olimjon bilan juda oz umr kechirgan bo'lsa-da, unga umrbod sodiq bo'lib qoldi. Turmush o'rtog'ini ulug'laydi, undan ilhom oladi. Bunday nozik va yorqin ifoda shoiraning "Bahor keldi seni so'roqlab" nomli she'rida yaqqol aks etgan.

Salqin saharlarda, bodom gulida,

Binafsha labida, erlarda bahor.

Qushlarning parvozi, ellarning nozi,

Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag`rim, bahorni,

O`rik gullarining eding maftuni.

Har uyg`ongan kurtak, hayot bergan kabi

Ko`zlaringga surtib o`parding uni.

Hijroning qalbimda, sozing qo`limda,

Hayotni kuylayman, chekinar alam.

Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,

Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Ha, bu she'riy satrlarda sadoqat, sog`inch, shu bilan birgalikda yoriga vafo tuyg`usi ufurib turibdi.

⁷ Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizaev Sh. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik (qayta ishlangan 2-nashri). Toshkent: Ma'naviyat. 2009.

Zulfiyaxonim xalqimizning atoqli shoirasi, muhabbat va sadoqat kuychisi Zulfiyaxonim bitgan bu satrlar bahorning ilk kunida beixtiyor yodimizga tushadi. Mana shu misralar misoli shoiraning o`zi ham bahorning ilk kunida tavallud topgan.

Olam ham, inson ham mehr-muhabbat tufayli yasharadi, go`zallashadi. Buni atoqli shoiramiz Zulfiyaxonim teran anglab, satrlarga jo etgan. Hamid Olimjon iborasi bilan aytganda, Zulfiya opa «O`xshashi yo`q» shoira edi. Chinakamiga ishq va vafo timsoli edi!

Zulfiyaxonim yuragida dunyolarga tatiydigan mehr-muhabbat, guldan nozik jussasida hayotning zalvorli yukini ko`targuvchi kuch mujassam edi. Shoiraning el-yurt, Vatan, farzandlari, turmush o`rtog`i Hamid Olimjonning yorqin xotirasiga bag`ishlangan she`rlari adabiyot ixlosmandlarining ko`nglidan joy olgan. Uning qalb tug`yonlariga limmo-lim haroratli she`riy misralari o`zbek adabiyotida alohida bir maktab bo`lsa, taqdirning achchiq sinovlariga dosh berib, qaddini baland tutib, onalik mehri-yu, cheksiz sadoqati bilan hayotning past-balandini engib o`tishi ko`pchilikka ibratdir. Xalq nazaridagi inson, ayniqsa, ayol har so`zi, yurish-turishi, kiyinishigacha e`tiborli bo`lishi lozim. Zulfiyaxonim bu mas`uliyatni a`lo darajada ado etgan. Shoir va yozuvchilar faqat Tohir va Zuhralar, Farhod va Shirinlarning afsonaviy muhabbatlarini kuylab-tasvirlabgina qolmaydilar. Ularning o`zlari ham sevgan yorlari bilan Tohir va Zuhralardek otashin muhabbat og`ushida hayot kechiradilar. Balki bunday baxtli hodisalar ko`p emasdir. Balki barmoq bilan sanarlidir. Agar Hamid Olimjon bilan Zulfiyaning afsonavor muhabbati barmoq bilan sanarli dostonlardan bo`lsa, uning qimmati yanada oshgan, binobarin, u nodir ishqiy dostonlardan biri bo`ladi.

Zulfiyaxonim mehribon ustoz, munis ona, fozil olima edi. U kishining mehridan bahramand bo`lmagan zamondosh shoiru adib kam. Bugun esa ko`pchilik qizlarimiz «Zulfiyaxonimdek shoira bo`laman», deya katta ishtiyoq va ixlos bilan qo`liga qalam olayotgani shoiraning o`z izdoshlari qalbiga mangu cho`g` solib ketganidan dalolatdir. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan o`zining vafo va sadoqati, onalik mehri va ayollik jasorati, salohiyati bilan o`zbek ayollari uchun

ibratga aylangan shoira sharafiga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta`sis etildi. Bugun ushbu mukofot har bir o`zbek qizining yuragiga yuksak orzular tugib, intilishga chorlamoqda.

Shoiraning she`rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to`g`risida juda ko`p gapirish mumkin. Lekin men bugun boshqa bir savolga javob izlayapman-Zulfiyani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollari qatoriga qo`shgan asosiy omil nima? Menimcha, bu uning e`tiqodi, juda yuksak ma`naviy va axloqiy fazilatlari, dili bilan tilning birligi, she`rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o`zi hayotda og`ishmay amal qilganida. Iste`dod ulug` ne`mat, lekin iste`dodning o`zi bilan ish bitmaydi, shekilli. Ming afsuski, bizda ayrim iste`dodli shoirlar va shoirlar bor, biroq ular o`zlarining iste`dodlariga berilib ketadilar-u, shunga yarasha inson sifatida ham ulug` bo`lishi kerakligini unutib yuboradilar. Bunaqa odamning ijodi biron-br tayinli qimmatga yoxud salmoqqa ega bo`lolmasligi o`z-o`zidan ayon. Zulfiya opaning ibrati shundan dalolat beradiki, har qanday iste`dodning yoniga insoniy fazilat qo`shilsagina. Ijod muayyan salmoq kasb etadi. Bunga esa butun umr bo`yi davom etadigan mashaqqatli mehnat bilan, astoydil jon kuydirish bilan erishiladi. Zulfiyaning oilaviy hayoti, muhabbati tarixi ko`pchilikka yaxshi ma`lum. Zulfiya shoir Hamid Olimjonni sevib, u bilan 1935 yilda turmush qurdi. Biroq oradan to`qqiz yil o`tgach, nogahoniy falokat tufayli ikkita farzandi bilan eridan beva qoldi. Keyin esa umrining oxirigacha Zulfiya Hamid Olimjonga muhabbatini bosh ustiga qo`yib, avaylab, asrab, gard yuqtirmay olib o`tdi. Ba`zan Zulfiya opa to`g`risida ikki bolani otasiz tarbiya qildi deyishadi. Mehingcha, bu unchalik to`g`ri emas, chunki Hamid Olimjon ruhan o`z xonadonini biron kun ham tark etgan emas. Devorlardagi suvratlarda Hamid Olimjon yirik-yirik ko`zlari bilan mutassil Zulfiyaga, farzandlariga qarab, ularning hollaridan xabar olib turardi, javondagi kitoblardan uning salobatli ovozi eshitilib turardi. Otaning ruhi tirik bo`lsa, u oilaning hamma ishlarida, shu jumladan, bolalar tarbiyasida ham ishtirok

etaverar ekan. Keyin o`quvchilarga quyidagi test taqdim qilib bilimlarini sinasak bo`ladi.

Zulfiyaxonim qachon va qayerda tavallud topganlar?	<input checked="" type="radio"/> 1915 yil 1-martda, Toshkentda <input type="radio"/> 1916 yil, 1-martda, Toshkentda <input type="radio"/> 1915 yil, 21-martda, Toshkentda <input type="radio"/> 1915 yil, 1-martda Farg'onada
Zulfiyaning ilk she'riy to'plami nima deb atalar edi?	<input type="radio"/> Quyoshli qalam <input type="radio"/> Sensiz <input type="radio"/> Tun <input type="radio"/> Hayot varaqalari
Zulfiyaga qanday xalqaro mukofot berilgan?	<input type="radio"/> Hamza <input type="radio"/> Mehnat qahramoni <input checked="" type="radio"/> Javoharlar'l Neru, Nilufar <input type="radio"/> Nobel
Zulfiya Hamud Olimjonga bag'ishlab qaysi she'rlarini yozgan?	<input type="radio"/> Sensiz, Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh <input type="radio"/> Bahor keldi seni so'roqlab <input type="radio"/> Tun, Oydinda <input checked="" type="radio"/> 1, 2 javoblar to'g'ri
Zulfiya adabiyotning qaysi yo'nalishida ijod qilgan?	<input type="radio"/> Epik <input type="radio"/> Dramatik <input checked="" type="radio"/> Lirika <input type="radio"/> epik-dramatik
Zulfiya bosh muharrir bo'lgan oynomaning nomi...	<input type="radio"/> Sharq yulduzi <input type="radio"/> Guliston <input type="radio"/> Yoshlik <input checked="" type="radio"/> Saodat

"Degrez" so'zining ma'nosi nima?

- Temirchi*
 - chilangar*
 - qozonchi*
 - misgar*
-

Zulfiya haqidagi Davlat mukofotining ta'sis etilishi haqidagi farmon qachon e'lon qilingan?

- 1999-yil 10-iyul*
 - 1999-yil 10-iyun*
 - 1999-yil 10 mart*
 - 2000-yil 10 mart*
-

Guljamol Asqarova Zulfiya nomli davlat mukofotini qaysi yo'nalish bo'yicha olgan?

- rassomchilik*
 - badiiy ijod*
 - musiqa*
 - raqs*
-

Zulfiyaxonim umrining so'nggi yillarida yaratgan doston qanday nomlanadi?

- Quyoshli qalam*
 - Xotiram siniqlari*
 - Shalola*
 - Men tongni kuylayman*
-

O'quvchilarga uyga vazifani darslikdagi berilgan savol va topshiriqlar tushuntiriladi. Uyga vazifa qilib she'rlarni yodlash, matnning namunali ijrosini tinglash va o'z ijrosini magnet tasmaga yozib olish beriladi. Taqdim etilayotgan ko'rsatmalarning asosiy maqsadi mashg'ulotlarda o'quvchining izlanishi, mehnat qilishi, asarni mutolaa qilib, mavzuni tahlil etishi, mulohaza yuritib, fikrlatishi, darslik mualliflarinikidan farqli ravishda asar haqida o'z xulosalarini bildirishga o'rgatishdan iborat. O'quvchilarning tarbiyalanishi va ruhiyatida insoniy fazilatlarning shakllanishida shaxsan ishtirok etishiga xizmat qilishga yo'naltirilgan.

1. Zulfiya she'riyatining asosiy g'oyaviy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Shoira uchun nimalar yoki kimlar aziz tuyg'ular bag'ishlovchi bo'lib qolgan? «Aziz tuyg'ular» turkumi haqida so'zlang.
3. «Nevara» she'rida shoiraga ta'sir ko'rsatgan holat nima edi?
4. She'rida ilgari surilgan fikr va tuyg'ulardan muallif qanday xulosalar chiqaradi?
5. «Bog'lar qiyg'os gulda» she'rining ramziy ma'nosini tushuntirib bering.
6. Shoira tog'day tayanch – «orqa tog'» deganda nimani nazarda tutadi?
7. «O'zbekiston – bag'ri keng diyor» mavzusida yozma ish yozing.
8. «Men o'tgan umrga» she'ridagi lirik kayfiyatni qanday izohlagan bo'lar edingiz?
9. Shoira Zulfiyaning hayot yo'li haqida «Ma'naviy jasorat timsoli» mavzusida adabiy anjuman o'tkazing.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Zulfiya haqidagi qanday fikrlarini bilasiz?
11. Zulfiya she'riyatining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib bera olasizmi?

Adabiyot darslarida savollar orqali munozara darslari o'tkazish mumkin. Bunda suhbat metodidan foydalaniladi. Bu metod o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga, tafakkurini kengaytirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara darslarida o'qituvchiga juda katta mas'uliyat yuklanadi. Bu darsning samarali bo'lishida o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlashi katta rol o'ynaydi. Demak, munozara darslari o'qituvchi+o'quvchi faoliyatida o'z aksini topadi.

Adabiyot o'qituvchilari badiiy asar tahlilining rang-barang usullaridan foydalana olishlari kerak. O'qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan sinfdagi barcha o'quvchilarning bir xil xulosa chiqarishiga intilmasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o'quvchilarning turlicha estetik-axloqiy ma'no topishlariga imkon berish kerak. O'qituvchi biror badiiy asarni tahlil qilishda muayyan sinfdagi o'quvchilarning rivojlanish darajalari, ruhiy holatlari, shuningdek, asarning ta'sirchanlik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ish ko'rishi zarur. Tahlilda asosiy e'tibor asarning estetik qimmatini ko'rsatishga, asar badiiyligini ta'minlagan omillarni idrok etishiga qaratilishi lozim. Puxta va chuqur estetik tahlilgina o'rganilayotgan asarning o'quvchilar hissiyotiga ta'sirini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, adabiy ta'limning yangilangan maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun mashg'ulotlarda «bola shaxsini ustuvor mavqega ko'tarish», «mashg'ulotlarda ma'naviyat shakllantirish ustuvorligini

ta`minlasli «o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish «o`quvchining o`zini harakatga undash, tarbiyalanishi jara-yonida o`zining bevosita ishtirokini ta`minlash» g`oyalariga amal qilinsa, adabiyot o`qitishdan kutilgan maqsadga ershish oson kechadi.

II BOB. MAKTABLARDA SAIDA ZUNNUNOVA HAYOTI VA IJODINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘RGATISH

2.1. Saida Zunnunova hayoti va ijodini zamonaviy usullarda o‘rgatish.

Maktabda adabiyot o‘qitishning vazifalari o‘quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg‘otish ularni badiiy asarlarni o‘qiydigan, tushunadigan va tahlil eta oladigan, o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma tarzda to‘g‘ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish lozim. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Saida Zunnunovaning 7- sinflarda «Mening Vatanim!»⁸, «Yer uzra qo‘ndi oqshom», «Qizimga»⁹, «Buvilar duoga qo‘llarin ochib» she‘rlarini o‘rganish uchun 2 soat vaqt ajratilgan. Shoira hayoti va ijodi haqida ma‘lumot. S.Zunnunova she‘rlaridagi tuyg‘ular teranligi va samimiyligi. «Mening Vatanim!» she‘rida yurtga muhabbat tuyg‘ularining ifoda qilinganligi. «Yer uzra qo‘ndi oqshom», «Qizimga» she‘rlarida ona mehrining badiiy yo‘sinda ifodalanganligi. S.Zunnunova she‘rlarining badiiy xususiyatlari haqida shu 2 soat davomida ma‘lumot berish, uni tashkil qilish usullari to‘g‘risida fikr bildirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bu vaqtda asosan Saida Zunnunovaning XX asr o‘zbek she‘riyatida va nasrida tutgan o‘rni. «Qizimga» she‘rida otaga xos sog‘inch tuyg‘usining tiniq va jozibali ifodalanishi. Lirik qahramon tabiatida milliy o‘ziga xoslikning bo‘rtib ko‘rinishi. She‘rda yaxshilikka, ezgulikka, ertangi kunga ishonch tuyg‘ulari tasvirining xalq ruhi o‘lmasligi haqidagi falsafiy xulosaga o‘sib chiqishi. «Yer uzra qo‘ndi oqshom» she‘rida umr falsafasi, hayotning har bir daqiqasini qadrlab va iz qoldirib yashashga da‘vatning yuksak poetik shaklda ifodalanishi. Shoir she‘rlarida so‘z qo‘llash san‘ati baholi qudrat ma‘lumot berish kerak. O‘zbek adabiyotining

⁸ Adabiyot. 7-sinf. Darslik-majmua. (qayta ishlangan 2-nashri). T., «Илпак». 2009.

⁹ Adabiyot. 7-sinf. Darslik-majmua. (qayta ishlangan 2-nashri). T., «Илпак». 2009.

yirik namoyandasi, Saida Zunnunovaning hayoti va ijodi to'g'risidagi umumiy ma'lumotni o'quvchilar birinchi soatda o'rgatiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan dunyo ta'limi fazosiga qo'shilish imkoniyatini beradigan yangi ta'lim tizimi tarkib topmoqda. Pedagogika fani O'zbekistonda shaxs manfaati ustuvorligini e'tirof qilgan holda erkin shaxsni tarbiyalash qonuniyatlari, shakl va metodlari, mazmun va tamoyillarini bir butun o'rganadi. Zamonaviy ta'lim usullari qo'llangan o'quv jarayonida ham an'anaviy sinf-dars tizimi saqlanadi. Faqat unda o'rgatishning tashkiliy shakllari, usullari takomillashadi.

Bugungi kunda adabiy ta'lim amaliyoti o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi «Guruhlarda ishlash», «Aqliy hujum», «Burchaklar usuli», «Rolli o'yin» kabi bir qancha interfaol usullar bilan boyidi.

O'qitishning noan'anaviy shakllaridan bo'lmish hamkorlikda o'rganish o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metoddir. Hamkorlikdagi ta'limning bir ko'rinishi kichik guruhlariga bo'linganda uning a'zolari 6-7 kishi bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki hozirda sinflarda o'quvchilar soni 30-35 nafarni tashkil etmoqda. Guruhda ishtirokchilar sonining ko'pligi guruh a'zolarining faol ishtiroklariga halaqit beradi; guruh tarkibini tanlashda, albatta, har bir guruhga «a'lo», «yaxshi» va «qoniqarli» o'zlashtiruvchi o'quvchilar teng miqdorda kiritilishi talab qilinadi. Hech qachon «kuchlilar» va «kuchsizlar» guruhi tuzilmasligi lozim; guruh a'zolari guruhning o'zlashtirishiga qarab, yangilanib turishi kerak.

O'qituvchi shoironing hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga quydagicha bayon qilishi mumkin. Shoira haqidagi fikrlarda namunalar keltirish mumkin. Bular asosan adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holda etib kelgan manbalardan olinishi mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiillardir.

Shoiramni izladim men arg'uvonlar bag'ridan,

Gulga toʻlgan makonlardan, lomakonlar bagʻridan.

Farishtaday oʻltirarsiz qadru iymon taxtida,

Shu - hayotning Saidasi, davron soʻzli sozi shul,

Shu – hayotning Said Ahmadi, karvon soʻzli sozi shul..

Oʻzbekiston xalq shoirasi Oydin Hojieva

Saida Zunnunova goʻzal va dardli sheʻrlar yozgan shoira edi. Saida Zunnunova teran mantiqli hikoyalar yozgan adiba edi. Saida Zunnunova – vafodor ayol, poʻlat irodali inson edi.

Oʻtkir Hoshimov.

Talantli shoira, jozibali nasriy asarlar muallifi Saida Zunnunova 1926 yilning 15 fevrali Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Otadan erta etim qolgan Saida 1941-1943 yillar Andijon oʻqituvchilar institutida tahsil oladi. U Andijon maktablarida muallima, gazeta muharririyatlarida adabiy xodim boʻlib ishlagan. Ilk sheʻri 1935 yili «Paxta fronti» gazetasida bosilgan.

Keyinchalik Oʻrta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston Milliy universiteti)ning filologiya fakultetida tahsil oldi. Oʻqishni tamomlab, “Gulxan”, «Oʻzbekiston madaniyati» nashrlari va Badiiy adabiyot nashriyotida, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasida xizmat qiladi.

Shoiraning

«Qizingiz yozdi» (1948),

«Yangi sheʻrlar» (1950),

«Gullar vodiysi» (1954),

«Qizlarjon», «Bir yil oʻylari» (1967) sheʻriy toʻplamlari kitobxonlarga taqdim etildi.

Nasrda ham sermahsul ijod etgan adibaning

«Gulbahor» (1956) hikoyalar toʻplami muhabbat, oila, eskilik qoldiqlariga qarshi kurash mavzularini aks ettirsa,

«Gulxan» (1958) qissasining asosiy qahramoni ayollar boʻlib, ularning yigirmanchi yillardagi kurashi oʻziga xos badiiy boʻyoqlarda ifodalangan.

«Olov» (1962),

«*Odamlar orasida*», «*Ko`chalar charog`on*» (1965),

«*Bo`ylarindan o`rgilay*» (1972),

«Direktor» kabi asarlarining qahramonlar ham ayollardir.

Qo`shqanotli ijodkor adib Said Ahmadning turmush hamrohi, sevimli rafiqasi edi. Ijodkor ayni kamolot yoshida 1977 yil 51 yoshida og`ir xastalikdan bevaqt vafot topdi. Uning hassos nazmi, samimiy nasri o`zbek kitobxonlarining ma`naviy mulkiga aylanib qoldi.

Saida Zunnunova har qanday sharoitda ham oilasiga, sevimli turmush o`rtog`i Said Ahmadga sodiq qoldi. Oilasini asrab, uning obro`si uchun kurashdi. Saida Zunnunova ayol qalbi navolarini nasrda va nazmda chiroyli qilib kuylay olgan iste`dodli ijodkordir. Boisi uning hayotiy hikoyalari, qissalari, she`r va dostonlari adabiyotimizning eng sara namunalariga, kitobxonlarimizning sevimli asarlariga aylangan. Saida Zunnunova asarlarini unisi yaroqsiz, bunisi yaroqli deb turkumlarga ajratish qiyin. Ularning har biri kitobxon uchun hamon aziz va ardoqli. Xonandalar tilidan tushmay qo`shiq qilib kuylanib kelinmoqda. Saida Zunnunova hayoti va ijodi haqida o`quvchilarga gapirish jarayonida Said Ahmad haqida ham ma`lumot berib ketilsa, maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bir-birlariga suyanib yashagan, vafo va sadoqatlari vaqtning shafqatsiz sinovidan o`tib, toblangan ikki ulug`vor siymo Said Ahmad va Saida Zunnunova... “Qanoatda Saida filcha bo`lurmi , hay, hay...” Bir ayolning turmush o`rtog`iga bo`lgan vafo-sadoqati bo`lsa, Saida Zunnunovachalik bo`lar. Sevishib turmush qurishgach, chillasi chiqmagan kuyovni “xalq dushmani” sifatida qamashadi. Saida Zunnunovaga turmush o`rtog`idan voz kechishni aytishadi. Qat`iyatli ayol turmush o`rtog`idan voz kechmaydi, o`qishdan haydashadi, ishdan haydashadi. Endigina tanilib borayotgan shoiraning she`rlarini chop etishmaydi. Shunga qaramay Saidaxonim kekxa qaynonasi bilan yashaydi, turmushida bo`lajak porloq kunlarga, turmush o`rtog`ini nohaq qamashganligiga ishonadi. Ro`zg`orni tebratish uchun mashinistkalik qilib ijodkorlarning asarlarini mashinkada yozib beradi, odamlarning, qadami uzilgan qarindosh-urug`larning dashnomlariga e`tibor bermaydi. Balki bu kichikkina jussasida insonlar tarafidan otilgan nohaqliklarga

o`zini beparvo tutgan metindek bardosh egasi barcha “zahar-zuqqumlar”ni ichiga yutgandır...

Turmush o`rtog`ining nohaq emasligiga kuchli ishongan yosh juvoning umidlari zoe ketmadi. Uning Saidi Stalin vafotidan keyin oqlandi. Ular baxtli hayot kechirishdi. Biroq bu baxtning umri nihoyatda qisqa bo`ldi. Endi sinov davri Said Ahmadga etdi. Avval Said Saidasini tark etib, so`ng qaytib kelgan bo`lsa, Saidasi Saidini manguga tark etdi. Bir-biriga suyanib, og`ir-engil kunlarda sirdosh, dardosh, hammaslak bo`lgan bu ikki ijodkorning ayrilig`i jisman bo`lsa-da, biri ikkinchisini doimo ruhan his qilib yashadi. Ko`z o`ngida uning ajabtovur siymosi har lahzadan gavdalandi.

Taniqli tanqidchi, adabiyotshunos olim Ibrohim G`ofurov Saida Zunnunova haqida quyidagilarni yozadi:

“Saidaning boshiga o`shanda Saidnikidan kam bo`lmagan mushkul ish tushdi. Uni uyushma kotibiyatiga chiqarib “Xalq dushmani” Saiddan voz kechishni talab qildilar. O`shqirdilar. Do`q-po`pisalar yog`dirdilar. Yosh bo`lsa ham ikki oliy institutni tugatgan, tahsil ko`rgan, toshdan qattiq bardoshli qiz edi. O`rtaga olib qistadilar. Voz kechmadi. Shunda ma`lum bo`ldi: hech qanday kuch uni voz kechishga majbur qila olmasdi. Yo`q u Saida bo`lgani uchungina emas. Uning degani, tanlagani, taqdiriga qo`shgani Said bo`lgani uchun ham u hech qachon voz kechmas edi. Uzoq yillar o`tgandan so`ng, hatto Saida ham dorulbayoqoga ko`chgandan so`ng Said bu haqida yozdi. Yig`lab-yig`lab, jigari xun bo`lib yozdi. Yillar yuragi tubida yotgan armoni, alam, muhabbatini qog`oz sahifalariga to`kdi. Uning Saida haqidagi xotiralarini Saidning eng go`zal go`zal dostoni, o`lmas taronasi deyish mumkin.¹⁰

Saida sabrsizni tiz cho`ktiradigan, irodasizni yetti bukib tashlaydigan, beburdni bir umrga yuzi qaro qiladigan o`sha og`ir sharoitda yuqori ko`tarila oldi. Saidaning qonida bormikin qahramonlik?

¹⁰ Иброҳим Ғофуров. “Сайд Аҳмад ва Саида” Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., “Шарқ”, 2001 йил. 6-7-бетлар.

Yoki bu qimmatli xususiyatni o‘zi duch kelgan juda og‘ir atmosferada unga zid insoniy kuch-qudrat sifatida ko‘ngil qa‘rilarida tarbiyaladimikan?

Ayollarning qoni mahramlikdan qorishgan bo‘ladi. O‘rta asr Yevropa faylasufi Montenning essetidagi erlari o‘limga hukm etilgan rimlik ayollar ularga og‘ir damlarda qanday dalda berganliklari, qanday ibrat ko‘rsatganliklari va erlari bilan birgalikda o‘lim sharobini ichganliklari bejiz emas. Ayollar mahramlikda bunday fidoyilik, jon berishga tayyor bo‘ladilar.

Sen menga bemalol suyanavergil

Mushkulning, dardingni-borin to‘kib sol..

Bu Saidaning sal keyinroq yozgan satrlari. Faqat o‘ziga juda ishongan kishi shunday mahramona yozadi. Hayot qanday bo‘lmasin, unda mustaqil, mustahkam tura oladigan kishi shunday dilovarlik bilan yoza oladi va shunday mahramona harakatlarga doim qodir bo‘ladi.

Saida o‘z xarakteridagi mana shu teran insoniy fazilatni barcha asarlariga olib kirdi, qahramonlari taqdirida uni tahlil qildi, yozuvchi va inson, ayol va uning asarlari mana shunchalar biri-biroviga uyg‘unlashib ketgan edi.

Saidaning keyinchalik badiiy asarlarida urug‘ olgan sadoqat, mehr, vafo, oqibat singari ahloqiy me‘yorlar xususidagi qarashlari ham xuddi shu mahramlikdan quvvat olar edi.

Birga jarga tushgum va oshgum dovon

Do‘stsiz, sadoqatsiz hayotim hayot?!¹

Saida Zunnunova o‘z asarlarida dam mehribon, dam vafodor, dam turmush ishlarida tangu tor, olchoq qaynonalar, o‘z haqi uchun talasholmaydigan, o‘ta andishali beozor, sochi supurgi kelinposhshalar, erini urush maydonlarida yo‘qotgan va bir umr ko‘zi yo‘lda ularni kutgan sadoqatli beva ayollar, erki o‘ta chekli xotin-qizlarni zo‘r mahorat bilan tasvirladi, ularning nozik yelkalariga olgan og‘ir yuklari haqida hikoyalar, dostonlar, she‘r va qissalar bitdi. O‘zbek ayollarining or-nomusi, uyat-andishasini qadrllovchi asarlar yozdi. O‘zbek ayoli

¹ Иброҳим Ғофуров. “Саид Аҳмад ва Саида” Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., “Шарк”, 2001 йил. 6-7-бетлар.

ma'naviyatning jon tomirlarini jon-jahdi bilan hikoya qildi. O'zbek qizlarining uzun sochlarini o'rab yurishini yoqtirgan shoira quyidagi satrlarni bitdi:

Sochim qora bo'lsa, tim qora bo'lsa

Orqamda to'lg'anib tursa yurganda.

Saida Zunnunova tasvirlagan ayollar haddan tashqari kamtarin edilar. Avvalo ularning hayotga qo'yadigan talablari ham kamtarin edi. Ular ko'p narsa istamaydilar. Oddiy narsalardan qanoatlanadilar. Ehtiyojlar ko'p emas. Ko'p bo'lsalar ham yuzaga chiqarmaydilar. Shoira juda ko'p qahramonlarida shunday tortinchoqlik, uyatchanlik ko'zga tashlanib turadi. Bu yozuvchi o'ylab topgan narsa emas. U uzoq davom etgan tarixiy muhitning natijasi.

Ijodkor shaxs biografiyasi hayotiy voqealar yig'indisigagina bo'lib qolmay, balki shoir qalbida kechgan tuyg'ular manbai sifatida ham qoplanadi. Shu bois biror adib ijodi o'rganilganda uning tarjimai xoli ham nazardan chetda qoldirilmaydi. Badiiy asarning yaratilishiga turtki bo'lgan hayotiy voqealar va kechinmalarni o'rganish esa o'sha asar zamirida yotgan yashirin ma'no qatlamlarini ochishga yordam beradi. Adabiyotshunoslik ilmida struktural metod asoschisi sifatida tan olingan Yu. Lotman rus adibi Karamzinning tarjimai holini jiddiy o'rganish asosida yaratgan "Karamzinning kashf etish"gina emas, balki qalb biografiyasini yaratish ekanligini ta'kidlagan va B.Ugorovning fikrini, bunga to'la erishgan. Demak, ijodkor shaxs tarjimai xolini o'rganish va biografiyasini yaratishda maqsad uning badiiy va publitsistik asarlariga asos bo'lgan hayotiy voqealarni qayta tahlildan o'tkazish hamda o'sha asarlarni tushinish uchun "kalit" topishdan iborat.

Saida Zunnunovaning aksariyat she'rlarida muallif shaxsi bilan lirik qahramon juda yaqin yoki teng. Buni quyidagi satrlarda ham yaqqol ko'rish mumkin: ***Kurashsiz, mehnatsiz shodlik kulguni***

O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.

Kasbimning parchasi singmasa agar

Rozimasman birov hadya etsa zar.¹¹¹

¹¹ С.Зуннунова Танланган асарлар. Т., 1976, 1-жилд. 166-бет.

Said Ahmad “ushbu satrlar Saidaxonning she’rda chizilgan suratiga o‘xshaydi”² deb yozgan . Mazkur parchada shoira xarakteriga xos xususiyatlarni ham, mashaqqatli yillarning dard-alamlari aks-sadosini ham ko‘rish mumkin. Otasidan erta ajralgan shoira hayotning naqadar beshafqat ekanligini, g‘am-g‘ussa, yo‘qchilik nimaligini juda barvaqt anglagan, keyinchalik bu kechmishlarning badiiy ifodalari uning asarlariga jonlilik, hayotiy joziba bag‘ishlagan.

Ijodkor shaxsining shakllanishida bolaligi qay tarzda kechgani muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalik xotiralari bir umr hamroh bo‘lishi, ayrim asarlariga mavzu berishi mumkin. Abdulla Qahhorning shafqatsiz realizmiga achchiq o‘tmishi, sarson-sargardonlikda kechgan bolaligi sababchi bo‘lgan bo‘lsa, Oybek ijodidagi romantikaga moyillik, tabiat go‘zalligi va voqealarni nozik his eta olish nisbatan osuda kechgan bolalik yillari, bobosi, onasi hamda opasining ta’sirida paydo bo‘lgan. Saida Zunnunovaning bolaligi baxtli kechgan. Ota-onasi, buvisi bilan o‘tkazgan damlar, ayniqsa, otasining g‘amxo‘rligi unga go‘zal xotiralar qoldirgan. Urush dahshati, keyinroq otasining vafoti o‘n olti yoshli shirin hayollar, ulkan orzular qo‘ynida yashayotgan qiz uchun og‘ir zarba bo‘ladi. Bu zarbalar unga dunyo o‘zi o‘ylagandan ko‘ra shafqatsizroq ekanini anglatdi, qiyinchiliklarni yengib o‘tishni, irodali bo‘lishni o‘rgatdi. Keyinroq yolg‘iz ukasining vafoti, umr yo‘ldoshining qatag‘onga uchrashi, nohaq ayblashlar, kamsitishlar shoiraga dunyoning asl qiyofasini namoyon etdi. Hayotda juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan shoira uchun tinch, osuda o‘tgan bolaligi bir umrga tatigulik go‘zal xotiralar bo‘lib qoldi. Tomda osmonning feruza rangini tomosha qilish yosh qalbga bir olam surur, zavq-shavq bag‘ishlagan bo‘lsa, oradan yillar o‘tib, yana o‘sha rangga intilish beg‘ubor damlarga, olamni yana o‘sha qalb bilan his etishga, bolalik ko‘zi bilan ko‘rishga intilishdir. Shuning uchun go‘daklikda yoqtirgan feruza rang ijodkorni to‘lqinlantiradi, ruhiga, hissiyotlariga ta’sir etib ilhom bag‘ishlaydi.

¹ С.Зуннуова Танланган асарлар. Т., 1976, 1-жилд. 166-бет.

² Саид Аҳмад Биз шундай яшадик // Йўқотганларим ва топганларим. Т., “Шарқ”, 1999. 189-бет.

Jiyda gulining isi ham shoiraga ilhom beruvchi vositalardan biridir. U ayni jiyda gullagan kezlarda hovlida allamahalgacha kitob o‘qib o‘tirar yoki ijod qilar ekan. Said Ahmadning yozishicha, uning o‘nlab sherlari bahorda, tabiat jiyda gullarining isiga burkagan vaqlarda yozilgan. Shoira ijodiy merosida “Jiyda gullaridan” deb nomlangan kichik sher ham bor. U jiyda gulining anvoyi atridan sarmast bo‘lgan lirik qahramoning ko‘tarinki kayfiyati tasviri bilan boshlanadi. Lirik qahramonga estetik zavq bergan tabiat mo‘jizasiidan she‘r yakunida inson hayotiga taqqoslasa arzigulik falsafiy xulosa chiqarilgan.

Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o‘rniga aniq ilmiy asoslangan ma’lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o‘z navbatida, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yo‘qalaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo‘lishi, ulardan o‘z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo‘lmoqda. Darslarda qo‘llanadigan interaktiv usullar o‘quvchilarda o‘z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko‘tarish, mantiqiy aniq va to‘liq nutq sohibi bo‘lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Adabiyot darslarida o‘tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o‘yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan: «Odam odamsiz yashay olmaydi. Inson o‘zining xushtabiati, shirin muomalasi bilan odamlar qalbidan joy oladi», kabi. Maktabda adabiy kechalar o‘tkazish ham o‘ziga xos samara beruvchi usullardandir. O‘quvchilar bunday tadbirlarda she‘rlardan namunalar yodlaydilar, timsollarga bo‘linib, asarlardan parchalar ko‘rsatadilar, sahnada o‘zlari ijro etadilar. Bunda o‘quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi.

Mana, oradan yillar o‘tdi. Bugun davralarda Saida Zunnunova ko‘rinmaydi. Lekin uning xotirasi ko‘ngillarda barhayot. Nozik nidolari, dilbar, noyob istioralari hamon she‘riyat muxlislarini hayratga solib kelmoqda. Ishqning o‘ynoqi havolariga to‘lgan g‘azallar to‘y-hashamlarda xofizlar tilidan tushmaydi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijodiy izlanish darslari iqtidorli va ijodkor, chinakam fanimiz ixlosmandlari bo'lgan bolalarni kashf qiladi. Ayni vaqtda ularga ota-ona, hayot, mehnat, hunar, odamiylikni ulug'lash, tabiat va hayvonot dunyosini e'zozlash, do'stlik va birodarlikni qadrlashni o'rgatadi.

2.2. Saida Zunnunova she'rlarini zamonaviy usullarda o'rgatish.

XX asr o'zbek adabiyoti rivojida yuqorida tilga olingan adiblar Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad va Asqad Muxtor singari adabiy avlod vakillari qatorida nasrda va nazmda tanho bo'lgan Saida Zunnunovaning ham muayyan xizmati bor. Shoira murakkab va tahlikali zamonda ta'qibu tazyiqlar ostida yashab, ijod qildi. Uning ijodiy merosi ayrim ziddiyatlardan xoli bo'lmagan holda o'ziga xosligini, tabiiy nafosatini saqlab qola olganligi bilan qadrlidir. Bunga shoirning davr farzandi ekanligi ham, hukmron partiya a'zosi bo'lganligi ham monelik qila olmadi. U o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi adabiy o'zgarishlar jarayonida, Abdulla Qodiriy iborasi bilan aytganda "shaxsi butun ijodkor" darajasiga ko'tarildi. Said Ahmad qatag'onga uchrab, nohaq qamalgan yillarda og'ir kunlarni boshdan kechirdi, ammo insoniyligini yo'qotmadi, e'tiqodida sobit turdi, qiyinchiliklarga qarshi mardona kurashib, ijodkorlik, yaratuvchilik pozitsiyasidan chekinmadi.

Hayot inson uchun ibrat ko'zgidir. Solih odamlarga o'tkir aqlu tafakkur berilgan. Ular mana shu buyuk ne'matlar vositasida ro'parasidagi ko'zgudan hayotning ulkan ibratlarini olishadi. Hayotdan ibrat olganlar o'zlari ham boshqalar uchun ibrat va namuna maktabiga aylanib borishadi. Bunday odamlarning butun umri ezgulikka, yaxshilikka yo'g'rilgan bo'ladi. Ular atrofida faqat yaxshilikni ko'rishadi, faqat yaxshilikni bilishadi. Zero, buyuk Firdgvsiy aytganlaridek: Agar kish ko'rsangiz baxor keltiring, Fakat yaxshilikdan shior keltiring.

Shoira lirikasining, umuman ijodning bosh mavzusi-ayol va uning taqdiri haqida qayg'urish. Saida Zunnunovaning she'rlari qaysi mavzuda ekanidan qat'iy nazar voqea-hodisalar ayol qalbi orqali idrok etiladi, ayollarga xos hassoslik bilan mushohada yuritiladi. U ayol ruhiy olamini butun nozikligi va murakkabligi, his-hayajonlari, qalb tebranishlari, tovlanishlari bilan berishga urinadi, shunga loyiq so'zlar qo'llaydi, obrazlar tanlaydi. Shoira ayol baxtining eng avvalo muhabbatda, farzand tarbiyasi va oilada deb bilganini xotiralaridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Bunday shaxsiy qarash ijodkorning hayotiy falsafasi darajasiga ko'tarilib, u

yaratgan qahramonlar tabiatiga ham ko‘chib o‘tdi. Shoira yaratgan qahramonlar ham baxtini xuddi uning o‘zidek tushinadilar va shunday baxt uchun hamma narsaga tayyor turadilar. Shunga asoslanib o‘zbek adabiyotida hali hech bir shoira oilaviy baxt haqida Saida Zunnunovachalik tabiiy va hayotiy yoza olmadi, deya olamiz. Chunki bunday mavzudagi she‘rlarning lirik qahramoni oilaviy baxtga muyassar bo‘lgan ayol-shoiraning o‘zi.

Bahor, tabiat mavzulari shoiraning eng sevimli mavzularidan biri edi. Bahor haqida Saida Zunnunovachalik ajoyib misralar bitgan ijodkor kamdan-kam topiladi. Shoira chin ma’noda bahor va baxt shaydosi edi.

Shoira she‘rlaridagi lirik qahramon, “So‘qmoqlar” /Aziza/ qissasidagi, “Ona” /Nasiba/, “Ko‘zlar” /Laylixon/ dramalaridagi, “Ruh bilan suhbat”, “Alla” dostonlaridagi onalar obrazi muallif shaxsidan olganini tasdiqlaydi. Bu obrazlardagi kishini hayajonga soluvchi, kuchli taassurot qoldiruvchi insoniy fazilatlar, mehr-muhabbat shoiraning farzandiga va onasiga munosabatida ko‘rinadi.

Iste’dodli ijodkor Saida Zunnunova «Qizingiz yozdi», «Yangi she‘rlar», «Gullar vodiysi», «Qizlarjon », «Bir yil o‘ylari» kabi she‘riy to‘plamlarida yoshlik sururi, Vatan shukuhi, mehnat nashidasini madh etsa, «Gulbahor», «Go‘dak hidi» kabi nasriy asarlarida oila, vafo va muhabbat mavzularini tarannum qilgan.

Turfa ranglardan birini yoqtirish va unga ko‘proq intilish zavqlanish inson tabiatiga xos xususiyatlardan. Ayniqsa, nozik tuyg‘ular va nafis ranglarni teran his qiluvchi, oddiy narsadan ham bir olam zavq oluvchi ijod ahlidan bu hol yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Masalan, Said Ahmad gunafsha rangni yoshligidan yaxshi ko‘rar, uni ko‘rganda yuragi hapqirib, to‘lqinlanib ketar ekan. Shuning uchun bolaligida faqat gunafsha rangli varrak yasas ekan. Saida Zunnunova esa feruza rangni juda yoqtirar, ilhom kelgan chog‘larda feruza ko‘zli uzugiga tikilganча, hayol surib qolarkan. *“Feruza rangning nimasi yaxshi?”* degan savolga shoiraning javobi tubandagicha bo‘lar ekan: *“Bolaligimni esimga tushiradi. Somonli shuvoq qilingan tomimizda bahor kezlari ko‘rpadek lolaqizg‘aldoqlar ochilardi. Atayin tomga chiqib chalqancha yotardim-da,*

osmonga tikilardim. Osmon so'ngsiz, ko'm-ko'k. Xuddi feruzaga o'xshardi. Hayolimga eh-he, nimalar kelmasdi o'shanda. Uchib chiqib ketgim kelardi. Negadir, hozir osmonda o'shnaqa tiniq feruza rang yo'qqa o'xshaydi".¹²

“Bahorni qarshilab” she’rining lirik qahramoni bu o’rinda shoiraning aynan o’zidir. Said Ahmadning Hamzaobod xotiralarida shoira tabiatidagi feruza rang bilan bog’liq yangi qirralar ochib berilgan. Adibning ta’kidlashicha, “Yo’l boshida”, “Qarz”, “Yangi sekretar”, “Kechikish”, “Kuz yomg’iri”, “Daftardagi dardlar” kabi o’nlab hikoyalar va bir qator lirik she’rlarning yaratilishida sayohat paytida olingan feruza ko’zli uzuk ilhom manbai bo’lib xizmat qilgan.

G’afur G’ulom, O.Sharofiddinov, L.Qayumov, J.Jabborovlarning xotiralarida Saida Zunnunova ijodining o’ziga xosligi, o’zbek adabiyoti taraqqiyotidagi ahamiyati ta’kidlab o’tildi. Shuningdek, T.Sodiqova, Saida Zunnunova, O.Hojieva “Soz”, M.Murodova “Darvoza” she’rlarida, To’lan Nizom “Oq gul” lirik qissasalarida shoiraning yorqin siymosini yaratishga harakat qilgan. Mazkur badiiy asarlardan ham shoira xuddi xotiralarda kuzatilganidek nohaqlik va adolatsizlikka beshafqat, lekin olijanob qalb egasi sifatida gavdalantiriladi.

“Qizimga” she’rida Saida Zunnunova ayolning baxti muhabbat bilangina mukammal bo’la olmasligini tasvirlaydi. U o’zini baxtli sanashi uchun Alloh uni farzand atalmish bebaho ne’mat bilan ham siylashi kerak. Onalik baxti haqida hatto sevish yoki sevilish u qadar qimmatga ega bo’lmasligi mumkin. Shoira ayolning jamiyatdagi faolligini o’z kasbini sevishi va sadoqatini yoqlagan holda “Bezovta hayolga asirman ba’zan, qolgisi kelmasa ishdan kelinchak. Bu yaxshi xislatu va lekin yomon Bir chetda bosib yotsa belanchak”, deya ayol uchun farzand mehrining nechog’li zarurligini ta’kidlaydi.

Shoir “Qizginam” she’rida farzandiga bo’lgan mehr-muhabbatni ifodalaydi, qiziga o’zining eng ezgu talaklarini tilaydi. Har bir ona farzandini sevib ardoqlarkan, uning kamolini ko’rishni, unga hatto yellar ham ozor bermasligini istaydi. Doim farzandi atrofida parvona bo’ladi. Jajjiginasining har bir hatti-harakatidan dildan quvonadi:

¹² Said Ahmad. Tanlangan asarlar. T., “Sharq”, 2000, 3-jild. 188-bet

Ba'zan polga tushgan jajji izlaringdan

Baxtinga boqqanday qilmay huzur.

Oppog'im, o'rgilay mehnatlaringdan,

Oppog'im, hamisha sog'-salomat yur²

Shoiara bisotida bunday farzandiga atalgan, ayol qalbi navolarini ifodalagan she'rlar juda ko'p. Bu jihatdan shoiraning qiziga atalgan allasi ayniqsa diqqatga sazovordir. Allada onaning farzandiga bo'lgan bor mehr-muhabbati, eng sara so'zlar bilan erkalashi va farzandiga atalgan eng ezgu va samimiy tilaklari ifodalangan:

Oyning shu'lası suvda,

Hamma narsa uyquda.

Mehrim tovlanib ketib,

Kuylagim kelar juda.

Uxla qunduzim, alla.¹

Ha, ona uchun dunyoda farzandidan ham azizroq inson yo'q. Ona farzandi uchun har narsaga tayyor. Uning har bir buyrug'i onalar uchun qonun. Farzandi nima qilmasin, onaga bular noto'g'ri bo'lib tuyulmaydi.

Lekin farzandini shunchalar ardoqlagan, suygan ona uning erka-tantiq bo'lishini istamaydi. Shuning uchun ham qiziga nasihat qiladi. Bu nasihatda onaning qizining taqdiri haqida, uning kelajagi haqida naqadar qayg'urishi, qiziga bor umid va ishonchini tikkanligi, qizi faqat onaning farzandi bo'lmay, balki el-yurt farzandi bo'lishi ham kerakligi, el koriga yarashi ham mujassamlashgan:

Mehnat, muhabbatim, mehrim haqiga-

Bir g'ubor ko'nmasin, desang, oppog'im,

Erka bo'l hamisha yurtning, xalqingga.¹

Yuqoridagi ma'lumotlarni o'qituvchi o'rinli joylarda foydalana bilishi kerak. Darsni o'qituvchilar quyidagi dars ishlanma asosida tashkil qilsalar bundanda yaxshi samaralarga erishishlari mumkin. Bilamizki dars 7- sinf 1-chorakda o'tish

² Саида Зуннунова Танланган асарлар Т., 2001, 64-бет.

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001, 29-бет.

rejalashtirilgan. Bunda o`qituvchi Saida Zunnunova she`rlarini tahlil qilganda o`quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olishi juda muhim sanaladi.

Mavzu: Saida Zunnunova she`rlarining badiiy xususiyatlari

Darsning maqsadi:

a) O`quvchilarda Saida Zunnunovaning she`rlarini o`qitish va yod oldirish orqali shoira ijodi haqida qisqacha tushuncha paydo qilish.

b) O`quvchilarga mehr- oqibat , vatanga sadoqat, vaqtdan unumli foydalanish, yuksak maqsadlar sari intilish tuyg`usini singdirish.

s)O`quvchilarning yozma va og`zaki nutqini o`sdirish.

Darsda foydalanilgan usullar:

“Hotira mashqi” va “ Adashtirdim topingchi” metodik usullaridan foydalaniladi.

Darsning borishi:

I Tashkiliy qism: Sinfga kirish, o`quvchilar bilan salomlashish, navbatchidan davomadni so`rash, xona tozaligiga e`tabor berish.

II O`tilgan mavzuni so`rash:

Uyga vazifa qilib Saida Zunnunovaning hayoti va ijodini o`qib kelish topshirilgan. Uyga vazifani tekshirish uchun avval o`quvchilarni to`rtta guruhga bo`lib olamiz. Keyin o`quvchilarning qanchalik tayyorgarlik ko`rganini “Hotira mashqi “ metodik usulidan foydalangan holda bilib olamiz. Unda har guruhga bittadan S.Zunnunova hayoti va ijodiga ta`luqli o`nta sana yozilgan qog`ozlarni tarqatamiz. O`quvchilar shu berilgan sanalarga izoh bergan holda voqealarni yozib chiqishadi. Mashqning tez va to`g`ri bajarilishiga qarab, guruhlar bajargan ishlarini bir –biri bilan almashgan holda tekshirib baholanadi.

III Yangi mavzu bayoni:

Qizimga

Jahon mening bag`rimdami yo men jahon bag`rida,

Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!

Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo`lchalar

¹ Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Т., 2001й., 214-бет.

Baxtga ko`mib yuragimni, yuzlarim erkalagan.

Ushbu she`rda shoira onalik baxtining shunchalik ulug`ligini ifodalagan. Uning “Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!” misralarida onaning shunchalar baxtliligidan baxor shamolini qanchalar yoqimli, go`yo bu shamol bir bahorning shamoli emas, yuzta bahorning yoqimli shamoli sochlarini silayotgandek tuyuladi. Keyingi misrada farzandining qo`llarini gullarga qiyoslasa, keying misrasida bu qo`llarning onaning yuzini erkalashi ona uchun qanchalik katta baxt ekanini keltirib o`tadi.

Savol va topshiriqlar;

1. “Jahon mening bag`rimdagi yo men jahon bag`rida, Yuz bahorning yellari sochlarimni silagan?!” misrlari qanday hayotiy lavhani ko`z oldingizda gavdalantirayapti? “Jahon” so`zi orqali ifodalanayotgan kechinmani izohlang.

2. “Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!” satridagi fikr va ifoda go`zalligini payqadingizmi? Uni tushuntiring.

3. “Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo`lchalar, Baxtga ko`mib yuragimni, yuzlarim erkalagan” satrlarida baxtdan masrur ona hissiyotlariga diqqat qarating.

4. “Yer uzra qo`ndi oqshom” she`ridagi dastlabki bandning “Oy shu`lasi bir mayin” hamda “Men seni allalayin” misralari o`rtasidagi aloqadolikni toping.

5. Badda qo`llagan “oqshom”, “oy”, “oppog`im” so`zlarining mazmuniy bog`liqligi orqali yuzaga chiqayotgan baiiyatni sharhlashga urining.

6. Ikkinchi banddagi ona erkashlarining musiqiyligi, ifoda go`zalligini yuzaga chiqarayotgan vositalarni aniqlang.

7. Tabiyat va inson uyg`unligini qayd etish orqali ko`zda tutilgan maqsadni ilg`ashga urining.

8. She`r (alla) yakuniga yaqin yulduzning charaqlashi, oyning yaraqlayotgani nima uchun ta`kidlanmoqda? Buni qizaloq uyqusi, tushlariga ta`siri bo`ladimi?

Yer uzra qo`ndi oqshom ,

Oy shu`lasi bir mayin.

Kel, oppog`im, kel, erkam,

Men seni allalayin.

Dudog`ing guldan xushbo`y,

Yuzlaring undan xushro`y.

Kel, oppog`im, bag`rimga,

Jajji boshginangni qo`y.

Ushbu she`ri ham onaning farzandiga aytayotgan allasi sifatida yozilgan.

Birinchi to`rtlikdagi “Oy shu`lasi bir mayin” va “Men seni allalayin” misralari o`zaro bog`langan holda yozilgan. Unda shoira oying tunda chiqishi bilan tun uyqu payti bo`lganligini bog`lagan.

Uchinchi to`rtlikdagi “Tovuq uxlar qo`noqda” misrasidagi “qo`noq” so`zi yotadigan joy manosida kelgan. Ushbu she`rda tabiat va inson uyg`unligi keltirib o`tilgan. She`dagi “Yulduz charaqlayapti”, “Oy ham yaraqlayapti” mistalari orqali shoira qizchanning tush ko`rayotganini tasvirlashga uringan.

Buvilar duoga qo`llarin ochib,

“Boshi toshdan bo`lsin”,- der jigarlarin.

Buvalar yelkaga ortib, opichlab,

“Boshi toshdan bo`lsin”,- der jigarlarin.

Aziz buvijonlar, aziz buvalar,

Yodingizda bo`lsin yana bir tilak.

Boshi toshdan bo`lsin jigarlaringizning,

Ammo tosh bo`lmasin ko`ksida yurak.

Bu she`rida Saida Zunnunova qari buvilarning buvalarning bolalariga, nevaralariga boshlari toshdan bo`lshini tilashadi. Ammo birnarsani esidan chiqmasligini ya`ni boshi toshdan bo`lsin u yuragi tosh bo`lmasin deyapdi.

Bu yerdagi “Boshing toshdan bo`lsin” iborasining ma`nosi hayot qiyinchiliklariga bardoshli bo`lsin, kuchki , qudratli bo`lsin joning sog` bo`lsin kabi manolarda ishlatiladi. Yuragi toshdan bo`lmasin deganda qaxri qattiq, qattiqqo`l bo`lmasin degan ma`noda keltiriladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Buvilarning duoga qo'l ochishi, buvalarning nabiralarni yelkaga ortib, opichlab yurishi tasviridagi hayotiy haqiqat va badiiy mantiqni sharhlang.

2. "Boshi toshdan bo'lsin" iborasining ma'nosini nima? Nima uchun aynan bosh toshdan bo'lishi kerak?

3. Ushbu she'rda shoira bildirayotgan tilakning ma'nosini hayotiy misollar bilan izohlab bering.

4. Buvi va buvalarimizning shu kabi boshqa duolaridan birini eslang. Sizningcha, xuddi shoira shoiraning mazkur she'ridagi "ammo"si kabi douning yoniga qanday tilakni qo'yish mumkin?

Mening vatanim

Yuz yil umr ko`rsam,

Yuz yil she`r yozsam,

Yuz yil tarifingni

Aytsam muttasil.

Baribir, sevgili

Yor rasmini

Chizmoqqa munosib

Rang topolmayin

Chamanda tentirab

Yurgan rassomday,

Sening tasviringga

So`z axtararman,

So`zlar sarasidan

Shu bugungiday.

Yuz yilgi she`rimni

Yig`lasa hamki,

Bo`lmaydi dildagi

Sevgimday asil,

Ey, mening Vatanim

mening Vatanim

Dunyoda ne yaxshi

Xislatlar bor,

Hammasi, hammasi

Senda mujassam.

Aziz tuprog`ingni

Ko`zimga surib,

Bahorda barglarga

Yuzimni surtib

Insonlik hurmati

Ichaman qasam:

Senga qurbon bo`lsa,

Mayli, jon-tanim.

Sening shoirangman,

Shu ulug` elning

Bir jigarbandi.

Adolat, erklikni

Kuylaganim-chun

Quvg`indi bo`lmayman

Keng quchog`ingdan-

Biz doim birgamiz,

Mening Vatanim.

To tirik ekanman,

Mehring, g`ururing

Mehnatda, rohatda

Jonim payvandi,

Sen mening sevganim,

Mening maqtaganim!

Ushbu she`rida shoira vatan madhini kuylagan. Yuz yil she`r yozib yana yuz yil seni kuylasam deydi. Men chiroyli surat chizish uchun rang ahtarayotgan

rassom kabi sevi ta'tifingga so'z axtaraman deya yozadi . Men seni adolatingni, erkinligingni seni kuylaganim uchun sening quchog`ingda yashayapman. Sen mening sevganimsan Vatanim deya o`z vataniga sadoqatini izhor qilyapdi shoira Saida Zunnunova.

IV Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun biz “Adashtirdim topingchi” metodik usulidan foydalanamiz. Unda o`quvchilar shoira she`rlaridan olingan chalkash to`rtliklarni o`rni o`rniga joylashtirishlari kerak bo`ladi.

Guruhlar shartlarni bajarib bo`lganlaridan keyin bir- biri bilan almashgan holda xato yoki to`g`riligini tekshiramiz. Guruhlarning qay darajada to`g`ri va tez bajarganiga qarab baholanadi.

V Baholash va rag`batlantirish:

O`quvchilar darsda faol ishtirok etishlariga qarab va uyga vazifani qay darajada bajarganliklariga qarab qayidagicha naminatsiyalar bilan baholanadi.

“Eng faol guruh”

“Eng bilimdon guruh”

“Eng topqir guruh”

“Eng zukko guruh”

VI Uyga vazifa:

Uyga vazifa qilib Saida Zunnunovaning sherlarini yod olish.

“ Hotira mashqi”

1926-yilda- S Zunnunova Andijon shahrida tug`ilgan

1941-yilda- Andijon o`qituvchilar institutiga o`qishga kiradi

1943-yilda- Andijon o`qituvchilar institutini tugatadi.

1947-1952-yillarda-O`rta Osiyo davlat universitetining Filologiya fakultetida o`qiydi

1945-yida- Ilk she`ri “Salom sevgi”ni Andijon viloyatining “ Paxta fronti” gazetasida bosilgan

1977-yilda- 51 yoshida vafot etadi.

“Adashtirdim topingchi”

Tovuq uxlar qo`noqda,
Shamol tingan buloqda.
O`t –o`lanlar jimgina
Orom olar o`tloqda.
Dudog`ing guldan xushbo`y,
Yuzlaring undan xushro`y.
Kel, oppog`im, bag`rimga,
Jajji boshginangni qo`y
Yer uzra qo`ndi oqshom ,
Oy shu`lasi bir mayin.
Kel, oppog`im, kel, erkam,
Men seni allalayin
Yulduz charaqlayapti,
Oy ham yaraqlayapti.
Qizcha uxladimi deb
Mendan so`roqlayapt.

Uyga vazifa: Saida Zunnunova she`rlaridan yod olish.

O`quvchilarning darsdagi mas`ulligini oshirish va ularda o`rganilayotgan asarga qiziqishni kuchaytirishda, biror asarni to`liq o`rganib, bo`lingandan keyin bahs dars o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o`quvchi asar bilan yaxshi va to`liq tanishmagan bo`lsa, berilgan muammoni to`g`ri tushuna olmaydi va savollarga javob berishga ojizlik qiladilar. O`z fikriga ishonmagan o`quvchi bahsga ham aralashib, faollik ko`rsata olmaydi. Baxs darslar o`quvchilarni fikrlashga, so`zlashga, tadqiqot qilishga, maqbulni nomaqbuldan ajrata bilishga, o`z fikrini dalillar bilan isbotlashga, muxokama va munozara yuritishga o`rgatadi. O`quvchi-talabalar xaqiqatni yuzaga chiqarishga intiladi, chunki haqiqat baxsda tug`iladi.

Xulosa qilib aytganda, ta`limning mazmuni har tomonlama etuk ma`naviyatli, ma`rifatli kadrlarni kamol toptirish, voyaga etkazish xar bir ta`lim-tarbiya beruvchi shaxsdan ya`ni, o`qituvchidan, yuksak iste`dod talab qiladilar. Bu iste`dod faqat

o'qituvchining bilimini oshirishga qaratilgan bo'lishi, buning uchun o'qituvchi hamma soha bilan hamnafas bo'lishi nazarda tutiladi. Har bir darsga alohida mas'uliyat bilan tayyorlanish o'qituvchining muqaddas burchidir. Bilimdonlik, tajriba, kasbiy mahorat, ko'nikma adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi muhim omildir.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. *Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar*

Zulfiya «Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..», «Bog'lar qiyg'os gulda», «Nevara», “Bahor keldi, seni so‘roqlab” she‘rlari (2 soat). Shoira hayoti va ijodi haqida ma‘lumot. Zulfiya she‘rlarida yashagan umridan va qilgan mehnatidan iftixor tuyg‘usiga to‘lgan kishi ruhiy olamining ifodalanishi. Shoira she‘rlarida hayotga, yashashga bo‘lgan zavqning turli shakllarda mujassamlanishi. She‘rlar badiiy jozibada.

Saida Zunnunova. «Mening Vatanim!», «Yer uzra qo‘ndi oqshom», «Qizimga», «Buvilar duoga qo‘llarin ochib» she‘rlari (2 soat). Shoira hayoti va ijodi haqida ma‘lumot. Saida Zunnunova she‘rlaridagi tuyg‘ular teranligi va samimiyligi. «Mening Vatanim!» she‘rida yurtga muhabbat tuyg‘ularining ifoda qilinganligi. «Yer uzra qo‘ndi oqshom», «Qizimga» she‘rlarida ona mehrining badiiy yo‘sinda ifodalanganligi. Saida Zunnunova she‘rlarining badiiy xususiyatlari. Zulfiyaxonim va Saida Zunnunova hayoti va ijodini quyidagi interfaol usullardan foydalanib tashkil qilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

«Insert» usuli. Ushbu usuldan adabiyot darslarida unumli foydalanish mumkin. Buning uchun ma‘ruza matni oldindan (masalan, Cho‘lponning hayoti va ijodi) tarqatiladi va o‘quvchilar ma‘ruza matni hoshiyasida quyidagi belgilar tizimini qo‘llagan holda matn ni o‘qishlari so‘raladi:

- (B) – bilaman
- (+) – yangi axborot
- (–) – bilganimga zid
- (?) – qo‘shimcha axborot

Bunda o‘quvchilarda quyidagi jihatlar shakllanadi:

- ishga mas‘uliyat bilan yondashish;
- o‘z bilimini xolis baholash;
- olgan bilimlarini avval o‘zlashtirgan ma‘lumotlar bilan bog‘lash;

- yangilikka intiluvchanlik;
- dadillik.

«**Toifalash jadvali**» usulidan foydalanib o‘quvchidan berilgan katta hajmli materialni o‘xshashva farqli jihatlari asosida bir jadvalga yig‘ish talab etiladi. «**Insert**» usuli yordamida mavzuni o‘rganib kelgan o‘quvchi jadvalni quyidagi talablar asosida to‘ldiradi.

Adibning taxalluslari Tug‘ilgan yili Eng mashhur asar(lar)i Oilaviy sharoiti Ijodiga oid eng muhim sanalar

Qolaversa, ushbu usuldan ona tili darslarida ham matnda qo‘llangan omonim, sinonim, antonim, paronim so‘zlarni topishda foydalanish mumkin:

Omonim Sinonim Antonim Paronim

Umuman, bu usulni xilma-xil tarzda o‘quvchilarga topshiriq sifatida berib, ularning izlanuvchanlik, tadqiqotchilik xususiyatlarini shakllantirish, ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirish, tizimli fi krlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantish mumkin.

«**Jonli muloqot**» usulidan foydalanib masofadan turib olim, shoir va yozuvchilar bilan muloqotga kirishish ayni muddao. Bunda ikki tomonlama ham vaqt tejaladi, ham har bir o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan savolga javob topa oladi.

«**Detektiv**» ta’limiy o‘yinidan badiiy asar tahlili jarayonida foydalanish mumkin. O‘quvchi qahramon nutqini o‘qib yoki asarda berilgan portreti orqali asar qahramonlari nomini aytadi va shu obrazga tavsif beradi. Bunda o‘quvchilarning sinchkovligi e’tiborga olinadi.

Xotira mashqi. Ikki o‘quvchi taklif etiladi. Birinchi o‘quvchi adabiyot darslarida o‘tilgan 10 ta asar nomini va muallifini sanaydi. Ikkinchi o‘quvchi esa aytilgan asarlardan esida qolganlarini aytishi kerak bo‘ladi. Ushbu usuldan ona tili darslarida ham foydalanish mumkin. Bunda birinchi o‘quvchi qo‘shimchalarni ketma-ket sanaydi, ikkinchi o‘quvchi esa xotirasida qolganlarini aytadi. Bundan tashqari xotira diktantlarini o‘tkazish ham yaxshi samara beradi. Masalan, ona tili darslarida fonetik o‘zgarishlarga uchragan 10–15 ta so‘z o‘qiladi va o‘quvchilardan

bir daqiqa mobaynida eslab yozishlari soʻraladi. Shu tariqa oʻquvchining ham xotirasi, ham savodxonligi tekshiriladi.

«Begonasini top» usuli. Oʻz nomidan ham maʼlumki, bunda bir mavzuga oid atamalar bilan birga bitta begona tushuncha beriladi. Oʻquvchi ziyraklik bilan uni bartaraf etishi kerak boʻladi.

«Domino» oʻyinidan oʻtilgan mavzuni takrorlashda foydalanish mumkin. Bunda 1-savol oʻqituvchi tomonidan oʻqib eshittiriladi. Oʻquvchilarga tarqatilgan tarqatmalarning birida savolning javobi yozilgan boʻladi. Topqir oʻquvchi dastlab toʻgʻri javobni, soʻng javob tagida berilgan savolni oʻqiydi. Bu savolning javobi ham boshqa tarqatmada ifodalangan boʻladi. Shu tariqa bir javob va bir savoldan iborat «Domino» oʻyini oʻtkaziladi.

«Zanjir» taʼlimiy oʻyini. Oʻquvchilar 3 guruhga ajratiladi va har bir guruhdan bittadan oʻquvchi taklif etilib, doskaga oʻzlari istagan rasmni chizishlarisoʻraladi. Guruhlar chizilgan rasmlar ishtirokida tez va chiroyli matn tuzishlari kerak boʻladi. Matnlar oʻqib eshittirilgach, eng yaxshi matn tuzgan guruh gʻolib deb topiladi. Shu tariqa oʻyin davom etadi. Bu usul oʻquvchilarda estetik did, ogʻzaki nutq hamda rasm chizish layoqatini shakllantiradi.

«Davom ettir» oʻyini. Mazkur oʻyin yakunlovchi mashgʻulotlarda darsning mustahkamlash qismida oʻtkaziladi. Oʻyin shartiga koʻra soʻz aytiladi, aytilgan soʻzning oxirgi harfi dan yangi soʻz aytiladi. Masalan: sifat soʻz turkumiga doir soʻzlar aytilganda: chiroyli – **iliq** – **qattiq** – **qora**...

Bu oʻyindan foydalanilganda oʻquvchilar hushyorlik, soʻzga chechanlik, oʻzgaralar fi krini hurmat qilishga oʻrganadilar. Dars jarayonida taʼlim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish:

- 1) maqsadni belgilash;
- 2) asosiy bilim manbayi;
- 3) taʼlim usuli;
- 4) oʻquv materialining yangiligi va murakkabligi;
- 5) talabalarning oʻquv imkoniyatlariga bogʻliq.

Ajiniyoz nomidagi NDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-"B" kurs talabasi Qutlimurotova Fotimaning **Zulfiyaxonim hayoti va ijodi** mavzusida tayyorlagan bir soatlik ochiq dars ishlanmasi.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning Zulfi ya Isroilova haqidagi bilim va malakalarini kengaytirish, har bir ijodkorning o'ziga xosligini idrok etish va izohlay olish ko'nikmasini rivojlantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar qalbida badiiy adabiyotga muhabbat hissini uyg'otish orqali ularni ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalash, o'zaro do'stona munosabatni shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni qiyoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatish, adabiyotning inson ma'naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini anglatish.

Darsda foydalaniladigan usullar: «Aplikatsiya», «Tadqiqot», «Orkestr», «Ko'nglimdagini top» usullari, test savollari.

Dars jihozi: netbuk, proyektor, elektron darslik, slaydlar, ko'rgazmalar, test kartochkalari, markerlar, magnit doska, globus, gul shaklidagi fl ipchart qog'ozlar.

Fanlararo aloqadorlik: rasm, musiqa, geografiya, ona tili, matematika, ingliz tili.

Darsning shiori: A'lo o'qish burchimiz, bunga yetar kuchimiz.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashiladi, davomat aniqlanadi. O'quvchilar va sinf xonasining darsga tayyorligi tekshiriladi. Sinf xonasida ijodiy iqlim yaratilib, sinf o'quvchilari to'rt guruhga bo'linadi:

- | | |
|----------------|---------------|
| 1. "qobiliyat" | 2. "iqtidor" |
| 3. "zakovat" | 4. "iste'dod" |

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, siz adabiyot deganda, avvalo, nimani tushunasiz?

1-o'quvchi: Badiiy adabiyot so'z san'atining murakkab va serqirra turi bo'lib, insonda yuksak ma'naviyatni shakllantirishning eng ta'sirchan vositasidir.

2-o‘quvchi: “Adabiyot” so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “odoblarning xazinasi” degan ma‘noni bildiradi.

II. O‘tilgan mavzuni so‘rash. «Aplikatsiya» usulidan foydalanilgan holda o‘tilgan mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

O‘qituvchi: Uyga vazifa mumtoz adabiyot namunalari orasidan irsoli masal, tuyuq, tajnis kabi badiiy san‘atlarga misollar topish, nazariy ma‘lumotlarni o‘rganish edi. Hozir biz “Aplikatsiya” usulidan foydalangan holda berilgan gulbarglar ortiga yashiringan savollarga javob berish orqali gul yasaymiz va o‘tilgan mavzuni mustahkamlab olamiz. Savollar quydagicha bo‘lishi mumkin:

1. Irsoli masal san‘ati nima?
2. Bu san‘atning o‘ziga xos belgilarini sanang.
3. Irsoli masal san‘atiga misollar keltiring.
4. Tajnis san‘ati nima?
5. Bu san‘atdan qaysi janrda foydalaniladi?

Gulbarglar ortiga yashiringan savollarga javob berish orqali guruhlar gul yasaydilar. Qaysi guruh savollarga ko‘proq javob bergani gulbarglar soniga qarab aniqlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni: Shoira Zulfi yaxonimning hayoti va ijodi. (Dars boshida oq qog‘ozning o‘rtasiga Zulfiyaxonim surati ostiga “Zulfiyaxonim 100 yoshda” yozuvi tushirilgan qog‘ozlar guruhlariga tarqatiladi. O‘quvchilar darsda ishtirokiga ko‘ra gulbarglar bilan rag‘batlantirib boriladi. Gulbarglardan gullar va dars oxirigacha guldasta yasab, shoira poyiga qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

O‘qituvchi: Biz bugungi darsimizda xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, shoira Zulfiya Isroilova haqidagi bilimlarimizni yangi ma‘lumotlar bilan boyitamiz. Betakror iste’dodi, Vatanga muhabbat, vafo va sevgi tuyg‘usini, oliyjanob insoniy fazilatlarni yuksakpardalarda tarannum etgan yetuk badiiy asarlari, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyati bilan milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga, xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishga qo‘shgan ulkan hissasini inobatga olib hamda tavalludining 100 yilligini munosib nishonlash maqsadida “O‘zbekiston xalq shoiri Zulfiya tavalludining 100 yilligini nishonlash

to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq tashkiliy qo‘mita Zulfi ya tavalludining 100 yilligini yuqori saviyada nishonlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdi.

Zulfiya XX asr o‘zbek she‘riyatining yirik vakillaridan biridir. U o‘zining teran falsafi y, hassos va hayotbaxsh realistik ijodi bilan hozirgi zamon o‘zbek she‘riyatida yangi sahifa ochdi. Isroil Muslimboy qizi Zulfi ya 1915-yil 1-mart da Toshkentning O‘qchi mahallasida tug‘ilgan. Zulfi ya o‘tib-ulg‘aygan hovli mo‘jazgina bo‘lsa-da, unda bir-biridan chiroyli, muattar gullar o‘stirilardi. Oila a‘zolari she‘rxonlikni, musiqani sevardi. Zulfi ya oilaning kenjasi edi.

Aziz o‘quvchilar, siz shoira Zulfi ya haqida qanday bilimlarga egasiz? (O‘quvchilar shoira haqida ma‘lumotlar beradilar.)

1-guruh: Oiladagi fayzli, osuda hayotni vujudga keltirishda onaning xizmati beqiyos. Shoiraning onasi zehnli ayol edi. «Agar iste‘dodim bor bo‘lgan bo‘lsa, uning chashmasi – onam. Agar adabiyot ahliga bir kaft don yanglig‘ she‘riy hosil tutgan bo‘lsam, uning urug‘ini qalbinga avval onam sochgan», – deya Zulfi ya Isroilova o‘z xotiralarida yozgan.

2-guruh. Shoiraning butun ijodi davomida onani, ayolni ulug‘lovchi otashin she‘rlar yozishi bejiz emas. Lekin uning hayotida otasining o‘rni ham beqiyos. Zulfiyaning otasi temirchi edi. Bu haqda shoiraning o‘zi quyidagicha xotirlaydi: «Ustaxona uyimizning yonginasida bo‘lganligi uchun ham men uning laxcha cho‘g‘ga aylangan po‘lat eritmalarni turli shaklga solishini, o‘sha cho‘g‘ po‘latdan turli asboblarni yasashini diqqat bilan kuzatishni yaxshi ko‘rardim. Olov va mehnat mahorat bilan birikkanda inson ko‘p ishlarning uddasidan chiqishi mumkinligini ham men bolalikdan anglab yetdim».

1-guruh. Zulfi ya 1931–1934-yillarda Xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil oldi. Shu yerda she‘r mashq qila boshladi. Bilim yurti qoshida adabiy to‘garak tashkil etilgan edi. Shoira hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshidayoq uning «Hayot varaqlari» (1932) nomli ilk to‘plami dunyo yuzini ko‘rdi. Hamid Olimjon bilan taqdirining bog‘lanishi (1935) shoira hayoti va ijodida ulkan burilish yasadi.4-guruh. Urush yillari Zulfi ya uchun ham katta

sinov davri bo'ldi. U ulkan yo'qotishdan – Hamid Olimjonning bevaqt vafot etishidan dovdirab qolmadi, endi ikki sozni – o'zi va Hamid Olimjon sozini chalishni bo'yniga oldi. Bu shoira she'riyati mazmuni, yo'nalishi, ruhidagina emas, ayni chog'da ijtimoiy faoliyatida ham yaqqol ko'rindi. Zulfi yaga berilgan qo'sha-qo'sha mukofotlar uning el-yurt oldidagi katta xizmatlaridan dalolat beradi. Shoira respublika Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston xalq shoiri, «Nilufar» mukofoti, Bolgariya Xalq Respublikasining I darajali «Kirill va Mefodiy» ordeni sohibasi. Zulfiya 1995-yilda «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan.

O'qituvchi o'quvchilar bergan javoblarni umumlashtirib, qo'shimcha ma'lumotlar keltirib, guruhlarni ishtirokiga ko'ra rag'batlantiradi.

O'qituvchi: Zulfiyaning 1932-yilda «Hayot varaqlari» nomli ilk kitobi chop etilgan. Shundan keyin uning «She'rlar» (1938), «Qizlar qo'shig'i» (1939), «Uni Farhod der edilar» (1943), «Hijron kunlarida» (1944), «Chorjo'y–Qo'ng'iroq» (1947), «Dalada bir kun» (1948), «Zootexnik qiz» (1952), «Tong qo'shig'i» (1953) kabi she'riy to'plamlari nashr etildi, «Oydin» (1953), «So'roqlaydi shoirmi she'rim» (1960), «Quyosh li qalam» (1967) nomli ocherk va dostonlari yaratildi.

Shoira she'ri asosida yaratilgan “Bahor valsi” qo'shig'i past ovozda eshittiriladi. Musiqa navolari ostida Zulfiya she'rlaridan namunalar yod aytiladi. Vaqtdan yutish maqsadida “Orkestr” usulidan foydalanish mumkin. Bunda oldindan yodlash uchun berilgan she'rni 1-guruh a'zolari boshlab bersa, xohlagan ke yingi guruh vakili davom ettiradi. O'qituvchi “dirijyor” vazifasini bajaradi. U tayoqchasi bilan ko'rsatgan guruh vakili she'rni kelgan joyidan davom ettira olishi kerak, aks holda orkestrdan chetlatiladi. Bunda o'quvchilarning she'rni yod olganlik darajasi, ifodali aytishi, nutqining ravon va go'zalligi hisobga olinadi.

1-guruh: Hayot kitobimni bexos varaqlab,

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.

Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,

Suyish kerak bo'lsa, telbacha suydim...

2-guruh:

Bog‘lar qiyg‘os gulda – yaxlit bir chaman,

Har daraxt anvoyi bir tarovatda.

Bir kaft bog‘ mehnat-u hosilga vatan,

O‘zga ko‘rk, o‘zga rang har bir daraxtda...

3-guruh:

Nevaram quyunday otilib kirib,

Qalamim tagidan qog‘ozni yular.

Damda varrak yasab ko‘kka uchirib,

Izidan qop-qora ko‘zlari yurar... (Mushoira shu tarzda davom ettiriladi, g‘olib guruh aniqlanadi.) Keyingi bosqichda “Tadqiqot” usulidan foydalangan holda 1-guruh shoiraning she’riy to‘plamlarini,

2-guruh shoiraning poemalarini, 3-guruh shoira tarjima qilgan asarlarni, 4-guruh shoira sazovor bo‘lgan mukofotlarni o‘zlariga tarqatilgan varaqlarga yozishlari kerak bo‘ladi. Guruhlarning berilgan topshiriq yuzasidan yozgan ma’lumotlari tekshirilib, baholanadi, eng ko‘p ma’lumot yozgan guruhga rag‘bat uchun gulbarglar beriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O‘qituvchi: Endigi bosqichda siz, aziz o‘quvchilar, Zulfiya hayoti va ijodiy faoliyatiga doir olgan bilimlari ngizni mustahkamlash uchun quyidagi test savollariga javob berishingiz kerak bo‘ladi. Buning uchun sizlarga ikki daqiqa vaqt beriladi.

1. Ushbu she’riy parcha shoiraning qaysi she’ridan olingan?

Ishqqa maskan yuragim:

“Topib ber”, – deb qistaydi.

Nima qilay, berahm

Ruhim seni istaydi.

A) “Ne baloga etding mubtalo”

B) “Oydinda”

C) “Sen qaydasan, yuragim”

D) “Sensiz”

2. “Dalada bir kun” she’riy to‘plami qachon chop etilgan?
- A) 1948-yil
 - B) 1960-yil
 - C) 1952-yil
 - D) 1944-yil
3. 1950–1953-yillarda shoira qayerda faoliyat yuritgan?
- A) “Saodat” jurnalida
 - B) “O‘zbekiston xotin-qizlari” jurnalida
 - C) Bolalar nashriyatida
 - D) Til va adabiyot institutida
4. Shoira 1975-yilda 60 yoshga to‘lishi munosabati bilan qanday orden bilan taqdirlangan?
- A) Mehnat Qizil Bayroq ordeni bilan
 - B) Mehnat Qahramoni ordeni bilan
 - C) Xalqlar do‘stligi ordeni bilan
 - D) Ittifoq Davlat mukofoti bilan
5. “Zulfi ya – o‘ta kamtar, o‘ta zahmatkash, bilim ufqi keng, doimo dili toshqin, olamni obrazlar ko‘zgisida tasavvur etishga qodir yetuk va asl shoira”. Ushbu fikr kimga tegishli?
- A) Cho‘lpon
 - B) Mirtemir
 - C) Abdulla Qahhor
 - D) Usmon Nosir
6. Zulfiyaning ilk she’riy kitobi qaysi va u qachon chop etilgan?
- A) “She’rlar”, 1938-yilda
 - B) “Qizlar qo‘shig‘i”, 1939-yilda

C) “Hayot varaqlari”, 1932-yilda

D) “Hijron kunlarida”, 1944-yilda

Belgilangan muddat o‘tgach, guruhlardan test yozilgan qog‘ozlar yig‘ishtirib olinadi. To‘g‘ri javoblar aniqlanib, g‘olib guruh e‘lon qilinadi.

V. Baholash va rag‘batlantirish.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, men sizlarga dars boshida Zulfi yaxonim surati tushirilgan qog‘ozlar tarqatgan edim. Sizlar dars jarayonida to‘plagan gulbarglardan gullar yasashingiz va shoira surati poyiga yopishtirishingiz so‘ralgan edi. Qaysi guruhning guldastasi eng chiroyli shaklga kelganini hozir bilib olamiz.

Rag‘bat sifatida olgan gulbarglardan yasalgan gullar soniga ko‘ra g‘olib guruh aniqlanadi. O‘quvchilar baholanadi. Guruhlarni rag‘batlantirish maqsadida quyidagicha nominatsiyalar berish mumkin:

1. “Eng ahil guruh”.
2. “Eng tartibli guruh”.
3. “Eng bilimdon guruh”.
4. “Eng chaqqon guruh”.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi darsimizda siz qanday bilimlarga ega bo‘ldingiz?

1-o‘quvchi: Biz bugun O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfi ya Isroilova hayoti va ijodi haqidagi bilimlarga ega bo‘ldik.

2-o‘quvchi: Shoiraning hayot yo‘li bilan tanishdik.

3-o‘quvchi: Zulfi ya haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘ldik.

4-o‘quvchi: Hamjihat bo‘lib ishlashni o‘rgandik.

5-o‘quvchi: Bilimlarimizni boyitdik...

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, sizlardan ham iltimos, ham talabim – har bir darsda faol, ahil bo‘lib birgalikda ishlang, zero, kuch – birlikda.

VI. Uyga vazifa: Zulfiya she‘rlaridan yod olish. Iqtidorli o‘quvchilar uchun: Zulfiyaning “Bog‘lar qiyg‘os gulda” she‘ri tarkibidagi badiiy san‘at turlarini topish.

XULOSA

Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari qatori xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lmish badiiy ijod, xususan, badiiy adabiyot rivoji ham davlatning, ham jamiyatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Mustabid tuzum davri nomlari, asarlari ta'qiqlab qo'yilgan yozuvchi va shoirlarning xotirasi e'zozlanib, ularning adabiy merosi qaytadan tiklangani, tavallud sanalari keng nishonlanib kelayotgani fikrimizning isbotidir.

“Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.”¹³

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Yozuvchilar uyushmasi faoliyatining samaradorligini oshirish haqidagi fikr-mulohazalari esa Yurtboshimizning adabiyot va ma'anaviyat masalalariga qanchalar e'tiborli ekanligini yana bir bor tasdig'idir. Birinchi Prezidentimiz o'z fikr-mulohazalarida xalqimiz ma'naviyatimizning, milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan, kerak bo'lsa, uning o'zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an'analarga ega adabiyotimizni asrab-avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og'ir va mas'uliyatli mehnatlari haqida batafsil to'xtaldi. Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqinda biladigan inson sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyos.

Yurtboshimizning ushbu so'zlari elimizning ardoqli shoirasi, nasrda va nazmda tanho bo'lgan iste'dodli ijodkorlar Zulfiyaxonim va Saida Zunnunova haqida ham aytilganday.. Ha, iste'dod degani bu faqat mahorat degani emas, balki til va dilning birligi ham ekan. She'riy mahorat sizdagiga o'xshab yuksak axloqiy-ma'naviy tamoyillarga tayangandagina ijod butun xalq ardoqlaydigan, ko'p zamonlar mobaynida unutilmaydigan qadriyatga aylanar ekan.

¹³ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, „Ma'naviyat“, 2008. 87 bet

O'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar yetishib chiqdi. Bugungi istiqlol kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Shu porloq yulduzlar ichida ayniqsa Zulfiyaxonim va Saida Zunnunovalar ijodi alohidalik kasb etadi.

So'zlarga hassoslik, siqqlik, tabiiylik, yasama-sun'iy obrazlardan qochish Saida Zunnunova asarlariga xos xislat, husndir.

Zulfiyaxonim ham o'ziga xos ijodkor. Uning o'z tili, o'ziga xos uslubi bor. Teran fikrlovchi shoira Zulfiya hayot haqida o'ziga xos tarzda poetik fikr yuritdi va o'z asarlarini falsafiy mazmun bilan bezadi. Qaynoq hayotni tasvirlab, undagi kichik voqea va detallardan katta poetik xulosalar chiqardi.

Ona vatanga sadoqat, mehnat va baxt, muhabbatni haqgoylik bilan kuylagan shoiralarning lirik she'rlari, jozibador qo'shiqlari, nasriy asarlari adabiy xazinamizni boyitib kelmoqda. Ikkala shoira uchun ham mushtarak xislat **vafodorlik** tuyg'usidir.

Maktabda adabiyot o'qitishning vazifalari o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otish ularni badiiy asarlarni o'qiydigan, tushunadigan va tahlil eta oladigan, o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma tarzda to'g'ri hamda erkin ifodalay oladigan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Ma'lumki, «Adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'anasiga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z malakaviy ishimizda aynan shu maqsadni ko'zladik. Shularni inobatga olgan holda biz «Umumta'lim maktablarida XX asr o'zbek shoiralari ijodini o'rgatish (Zulfiya va Saida Zunnunova ijodi misolida)» mavzuidagi malakaviy-bitiruv ishimizda maktabda Zulfiya va Saida Zunnunova

ijodini o'rgatishning zamonaviy va an'anaviy usullari xususida fikr-mulohazalarimizni bayon etishga intildik. Bunda biz asosan amaliyot jarayonidagi mehnat faoliyatimizga hamda tajribali ustoz muallimlarning tajribalariga tayandik. Ularning dars jarayonlarini kuzatib, mulohazalarimizni umumlashtirishga intildik.

Har bir dars o'quvchi hayotida unutilmas voqea, fikrida yangi kashfi yot bo'lib qolmog'i uchun o'qituvchi o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchi darajasiga olib chiqishi zarur. Bunda o'qituvchidan yuksak intellektual qobiliyat, o'quvchilarning qiziqishlarini to'g'ri aniqlab, maqsad sari yo'naltira olish talab qilinadi. Interfaol usullardan darslarda unumli foydalanilganda raqobat va hamkorlikning real muhitini yaratish imkoni tug'iladi va bu o'quvchilarda yashirinib yotgan tadqiqotchilik xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Xullas, agar o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rsa va o'z ishining jonkuyari bo'lsa, ushbu darslar mobaynida o'quvchilarni Zulfiyaxonim va Saida Zunnunova ijodining bir umrlik muxlislariga aylantirib qo'yishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Toshkent, O'zbekiston, 1999.
2. Karimov I. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: O'zbekiston, 2009. .
3. Karimov I. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch. T., Manaviyat. 2009.
4. Adabiyotga e'tibor-manaviyatga, kelajakka etibor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Yozuvchilar uyushmasi faoliyatining samaradorligini oshirish haqidagi fikr-mulohazalari. // “Jahon adabiyoti”, 2009, 7-son.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., «Yangi asr avlodi». 2006.
6. U zviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari (adabiyot) (5 – 9 - sinflar) Toshkent -2010
7. Ishmuhamedov R va b. «Ta'limda innnovatsion texnologiyalar» T.2008.
8. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizaev Sh. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik (qayta ishlangan 2-nashri). Toshkent: Ma'naviyat. 2009.
9. Egamberdieva F.O. Adabiy ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoreferati. – T., 2005. – 23 b.
10. O'zbek adabiyotidan zamonaviy darslar. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. /Tuzuvchilar A. Rafiev va boshq. –T.: O'zSilm. 1990. –82 b.
11. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. Toshkent, 2010,
12. Sayidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. –T.: RTM, 2000.
13. Mirqosimova M. Adabiy tahlil metodikasi (Adabiyot o'qituvchilari va talabalar uchun qo'llanma). - T: RO'MM, 1993. - 146 b.
14. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. –T: Fan, 2006. - 112 b.

15. Mirqosimova M. Badiiy tahlil usullari. –T.: RO‘MM, 1993. –37 b.
16. Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish metodikasi. –T.: Fan, 2007. -216 bet.
17. Niyozmetova T. Adabiy ta’limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish.//Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. T., 2008.
18. To‘xliiev B., Niyozmetova R., Boltaeva I. Darsliklar bilan ishlash. Toshkent, 2007.
19. Usmonova K. Adabiy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2004,
20. Husanboeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – Toshkent: O‘zinkomsentr, 2003. – 103 b
21. Adabiyot. 7-sinf. Darslik-majmua. (qayta ishlangan 2-nashri). T., «Sharq»». 2009.
22. Zulfiya. Saylanma.Tong bilan shom aro T., “Sharq” 2006
23. G‘afurov I.Ayol nazokati. “Til va adabiyot ta’limi”, 2006, 2-son.
24. Saida Zunnunova. Tanlangan asarlar. T., 2001.
25. Said Ahmad. Tanlangan asarlar. T., “Sharq”, 2000, 3-jild.
26. Said Ahmad.Biz shunday yashadik. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”, T., “Sharq” NMK, 1989.
27. Ergasheva Sh.Saida Zunnunova she’rlarida muhabbat mavzusi. “Til va adabiyot ta’limi”, 2006, 2-son.
28. Rasulova. M .Betakror iste’dod egasi (Zulfiyaxonim hayoti va ijodi). “Til va adabiyot ta’limi”, 2015, 5-son.
29. www.pedagog.uz
30. www.Ziyonet.Uz
31. <http://zulfiya.edunet.uz/> Zulfiya shioraning shaxsiy veb-shahifasi
32. <http://krzulfiya.narod.ru/> “Zulfiyaxonim Qizlari” nomli rasmiy veb-sayt